Annotatsiya: Ushbu maqolada kompleks sonlar tushunchasi va ular ustida bajariladigan asosiy amallar haqida batafsil ma’lumot beriladi. Kompleks sonlarning haqiqiy va mavhum qismlari, mavhum birlik (i) tushunchasi hamda ularning algebraik ifodalanishi keltirilgan. Maqola yakunida kompleks sonlarning elektronika, fizika va matematika sohalaridagi qo’llanilishi haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Ushbu maqola kompleks sonlar tushunchasini o’rganayotgan talabalar va matematikaga qiziquvchilar uchun foydalidir.

Kalit soʻzlar: Kompleks son, mavhum birlik, haqiqiy va mavhum qism, kompleks sonlar algebraik shakli, kompleks sonlarning moduli, kompleks sonlarning argumenti.

Kirish: Matematikaning rivojlanishi davomida turli muammolarni yechish jarayonida yangi son tushunchalari paydo boʻlib kelgan. Haqiqiy sonlar toʻplami (musbat, manfiy, butun, kasr, irratsonlar) matematik ehtiyojlarni ma’lum darajada qondirgan boʻlsa-da, ayrim masalalarda $x^2+1=0$ kabi tenglamalarni yechishda yangi sonlar tushunchasi kerak boʻldi. Chunki bu tenglamada hech qanday haqiqiy son x ning kvadrati manfiy boʻlishiga olib kelmaydi.

Haqiqiy sonlar bilan ish koʻrilganda noldan farqli har qanday haqiqiy sonni kvadrati musbat boʻladi deyilgan edi. Ammo kvadrati manfiy boʻlgan sonlar bilan ham ish koʻrishga toʻgʻri keladi. Bunday sonlar tabiiyki haqiqiy son boʻlmaydi.

Shu sababli, matematiklar yangi turdagi son — kompleks son tushunchasini joriy qildilar. Kompleks sonlarning asosi mavhum birlik i boʻlib, u quyidagi xususiyatga ega:

$$i^2 = -1$$

Bu tushuncha dastlab matematiklarga g‘ayritabiiy tuyulgan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning amaliy qo‘llanilishi va matematik ahamiyati isbotlandi. Bugungi kunda kompleks sonlar algebra, analiz, fizikada to‘lqinlar va elektr muhandisligi, kvant mexanikasi kabi sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

1- Ta’rif. Kvadrati -1 ga teng ifodani mavhum birlik deb ataladi va u i orqali belgilanadi.

Shunday qilib, $i^2 = -1$ yoki $i = \sqrt{-1}$.

Mavhum birlikning ta’rifidan $i^3 = i^2 \cdot i = -1 \cdot i = -i$, $i^4 = i^2 \cdot i^2 = (-1)(-1) = 1$, $i^5 = i$ va hokazo umuman k butun son uchun $i^{4k} = 1$, $i^{4k+1} = i$, $i^{4k+2} = -1$, $i^{4k+3} = -i$ ekannligi kelib chiqadi.

2-Ta’rif. z kompleks son deb

$$z = a + bi$$

ko‘rinishdagi ifodaga aytiladi, bunda a va b haqiqiy sonlar.

a va b ni z kompleks sonning haqiqiy va mavhum qismlari deyiladi va

$$\operatorname{Re}z = a, \quad \operatorname{Im}z = b$$

kabi belgilanadi.

Xususiyl holda, agar $a=0$ bo‘lsa u holda $z=0+ib=bi$ bo‘lib u sof mavhum son deyiladi. Agar $b=0$ bo‘lsa $z=a+i0=a$ haqiqiy son hosil bo‘ladi. Demak, haqiqiy va sof mavhum sonlar kompleks sonning xususiyl holi.

3-Ta’rif. Ikkita $z_1 = a_1 + ib_1$ va $z_2 = a_2 + ib_2$ kompleks sonlar $a_1 = a_2$ $b_1 = b_2$ bo‘lgandagina teng ($z_1 = z_2$) deyiladi.

Demak haqiqiy qismlari o‘zaro va mavhum qismlari o‘zaro teng bo‘lgan kompleks sonlar teng bo‘lar ekan.

4- Ta’rif. Ham haqiqiy qismi ham mavhum qismi noldan iborat kompleks son nolga teng deyiladi.

Demak, $a=0$, $b=0$ bo‘lgandagina $z=0$ va aksincha $z=a+ib=0$ dan $a=0$, $b=0$ kelib chiqadi.


5- Ta'rif. Faqat mavhum qismining ishorasi bilan farq qiluvchi ikkita $z=a+ib$ va $\bar{z}=a-ib$ kompleks sonlar o'zaro qo'shma kompleks sonlar deyiladi.

6- Ta'rif. Haqiqiy va mavhum qismlarining ishoralari bilan farq qiluvchi ikkita $z_1=a+ib$ va $z_2=-a-ib=-z_1$ kompleks sonlar qarama – qarshi kompleks sonlar deyiladi.

Kompleks sonning geometrik tasviri

Har qanday $z=a+ib$ kompleks sonni Oxy tekislikda koordinatalari a va b bo'lgan $A(a,b)$ nuqta shaklida tasvirlash mumkin. Aksincha, Oxy tekislikdagi har qanday $A(a,b)$ nuqtaga $z=a+ib$ kompleks son mos keladi.

Kompleks sonlar tasvirlanadigan tekislik z kompleks o'zgaruvchining tekisligi deyiladi va tekislikka doiracha ichiga z qo'yiladi. (1-chizma)



1-chizma

Shunday qilib kompleks sonning geometrik tasviri \mathbb{Z} tekislikning nuqtasidan iborat ekan. Bunda Ox o'qda yotuvchi nuqtalar $z=a$ haqiqiy sonlarni ($b=0$), Oy o'qda yotuvchi nuqtalar esa $z=bi$ sof mavhum sonlarni tasvirlaydi ($a=0$). Shuning uchun kompleks sonlarni z kompleks o'zgaruvchining tekisligi \mathbb{Z} da tasvirlanganda Ox o'q haqiqiy o'q, Oy o'q mavhum o'q deb ataladi. Umuman aytganda, kompleks sonlar to'plami bilan \mathbb{Z} tekislikdagi barcha nuqtalar to'plami orasida o'zaro bir qiymatli moslik mavjud.

$A(a,b)$ nuqtani koordinatalar boshi bilan tutashtirib \overrightarrow{OA} vektorni hosil qilamiz. Ba'zi hollarda $z=a+ib$ kompleks sonni \overrightarrow{OA} vektor ko'rinishda tasvirlash ma'qul bo'ladi. Bu ham kompleks sonning geometrik tasviri deyiladi.

Shunday qilib, kompleks sonning geometrik tasviri \mathbb{Z} tekislikdagi nuqtadan yoki

vektordan iborat ekan.

Kompleks sonlar matematikada haqiqiy sonlar to‘plamini kengaytirib, $i^2=-1$ shartini qanoatlantiruvchi mavhum birlik orqali ifodalanadi. Har bir kompleks son $z=a+bi$ ko‘rinishida yozilib, bu yerda a – haqiqiy qism, b – mavhum qism hisoblanadi. Kompleks sonlar ustida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish kabi asosiy amallar bajariladi. Shuningdek, ularning modul va argumenti orqali geometrik interpretatsiyasi ham mavjud bo‘lib, ular darajaga oshirish, ildiz chiqarish va eksponensial shaklda ifodalash kabi keng qo‘llaniladi.

Ushbu sonlar fizika, elektronika, muhandislik va boshqa fan sohalarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa signal ishlov berish, kvant mexanikasi va elektromagnit maydonlar nazariyasida keng qo‘llanadi. Shu sababli, kompleks sonlarni tushunish va ulardan foydalanish zamonaviy matematik va ilmiy tadqiqotlarda juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Keldiyor U., Ergashev M., Xudoyberganov A. – *Oliy matematika* Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.
2. Rahmatullayev Sh., *Matematika asoslari* Toshkent: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, 2020.
3. Ahmedov I., Hamidov B., Rahmonov U. Matematika (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik) Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017.
4. Karimov U. – *Kompleks sonlarning analitik funksiyalari* O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Matematika instituti jurnali, 2019-yil.
5. Ziyouz.com – Matematika bo‘yicha elektron darsliklar Manzil: <https://ziyouz.com>
6. O‘zbekcha Vikipediya – Kompleks sonlar Manzil: https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompleks_sonlar

O'pka tuberkulyozi bo'lgan bemor bolalarda klinik va epidemiologik tekshiruv usullari

Xasanova Mohira Farxadovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Kirish. O'pka tuberkulyozi dunyo miqyosida keng tarqalgan yuqumli kasallik bo'lib, ayniqsa, immuniteti sust bo'lgan bolalar orasida kasallanish ko'rsatkichi yuqori saqlanib qolmoqda. Bolalarda tuberkulyozning kechishi ko'pincha yashirin bo'lib, kasallikning aniqlanishi kechikishi mumkin. Shu sababli, bolalarda tuberkulyozni o'z vaqtida aniqlash va erta tashxis qo'yish uchun klinik va epidemiologik tekshiruv usullari muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda kasallikning klinik belgilari va epidemiologik xususiyatlarini aniqlash hamda diagnostik tekshiruv usullarining samaradorligini baholash.

Material va usullar. Tadqiqot doirasida o'pka tuberkulyozi tashxisi qo'yilgan 0-18 yoshdagi bolalar klinik, epidemiologik va laborator tekshiruvlardan o'tkazildi. Tekshiruv quyidagi usullar asosida olib borildi:

Anamnestik ma'lumotlar yig'ish: Bemorlarning oilaviy va ijtimoiy sharoiti, kontaktli holati o'rganildi.

Klinik tekshiruv: O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda asosiy simptomlar (isitma, yo'tal, vazn yo'qotish, holsizlik) qayd etildi.

Laborator tekshiruvlar: Mikroskopik tekshiruv va bakterial ekish usullari yordamida balg'amda Mycobacterium tuberculosis borligi aniqlangan, Immunodiagnostika: Mantou sinamasi o'tkazilgan.

Instrumental tekshiruvlar: Rentgenografiya orqali o'pka shikastlanishining turli shakllari o'rganilgan. Kompyuter tomografiya (KT) orqali aniqroq tashxis qo'yish imkoniyati baholanadi.

Olingan natijalar. O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda klinik simptomlar aksariyat hollarda uzoq davom etuvchi yo'tal, umumiy holsizlik, vazn yo'qotish va kechki isitmalanish bilan namoyon bo'ldi.

- Epidemiologik tahlil natijalariga ko'ra, bolalarning aksariyati tuberkulyoz bilan kasallangan oila a'zolari bilan kontaktda bo'lishgani aniqlandi.

- Laborator tekshiruv natijalari shuni ko'rsatdiki, Mantu sinamasi yuqori sezgirlikka ega bo'lib, KT esa o'pka shikastlanishining erta bosqichlarini aniqlashda muhim vosita ekanligi qayd etildi.

Xulosa. O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bolalarda tashxis qo'yishda klinik simptomlar bilan bir qatorda epidemiologik tekshiruvlar va zamonaviy laborator-instrumental usullar muhim ahamiyatga ega. Mantu sinamasi tashxis qo'yishda samarali bo'lib, kompyuter tomografiya tuberkulyozning kech bosqichlarini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida bolalar orasida tuberkulyoz tarqalishini oldini olish uchun keng qamrovli skrining dasturlarini amalga oshirish lozim.

Research Science and
Innovation House

O'pka tuberkulyozi va allergik bronxiti bo'lgan bemorlarda immunnologik aspektlarni o'rganish va qiyosiy taqqoslash usullari

Xasanova Mohira Farxadovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Kirish. Tuberkulyoz va allergik bronxit nafas yo'llari kasalliklari orasida keng tarqalgan bo'lib, ularning immunologik mexanizmlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ikkala kasallikda ham immunologik ko'rsatkichlarni qiyosiy o'rganishga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Tuberkulyoz, allergik bronxit, immunologik ko'rsatkichlar, sitokinlar, immunoglobulinlar, differensial tashxis

Tadqiqot maqsadi. -O'pka tuberkulyozi va allergik bronxit bilan kasallangan bemorlarda immunologik ko'rsatkichlarni aniqlash
-Ikkala kasallikda immunologik o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash
-Kasalliklarning kechishida immunologik ko'rsatkichlarning ahamiyatini baholash

Material va metodlar

O'pka tuberkulyozi bilan kasallangan 50 nafar bemor

Allergik bronxit bilan kasallangan 50 nafar bemor

Nazorat guruhi - 30 nafar sog'lom shaxs

Tekshirish usullari:

Klinik-laborator tekshiruvlar: Umumiy qon tahlili, Biokimyoviy ko'rsatkichlar, Balg'am tekshiruvi.

Immunologik tekshiruvlar: T- va B-limfotsitlar miqdori, Immunoglobulinlar (IgA, IgM, IgG, IgE) darajasi, Sitokinlar profili (IL-4, IL-6, TNF- α , IFN- γ), Fagotsitoz faolligi.

Kutilayotgan natijalar

1. O'pka tuberkulyozida:

- Th1 tipdagi immune javob ustunligi
- IFN- γ va TNF- α yuqori darajasi
- Fagotsitoz faolligining o'zgarishi

2. Allergik bronxitda:

- Th2 tipdagi immune javob ustunligi
- IgE va IL-4 yuqori darajasi
- Eozinofillar sonining oshishi

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan kutiladigan ma’lumotlar ikkala kasallikni differensial tashxislash va davolash taktikasini optimallashtirishga yordam beradi.

Amaliy ahamiyati. Immunologik ko‘rsatkichlar asosida kasalliklarni erta tashxislash, Davolash samaradorligini monitoring qilish, Kasallik prognozini baholash imkoniyati, Individual davolash taktikasini ishlab chiqish.



Research Science and
Innovation House

YO'SINLARNING TABIATDAGI O'RNI VA TARQALISH XUDUTLARI

Pardaboyev Soxib Begali o'g'li

JDPU Sirtqi bo'lim, Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi. e-mail. soxibpardaboyev1@gmail.com

Mullajonova Nilufar Farxod qizi

JDPU Sirtqi bo'lim, “Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta'lim kafedrası” biologiya yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada yo'sinlarning ahamiyati, jumladan, hayvon va inson hayotidagi o'zni. Bugungi kunda yo'sinlar tabiatda tarqalishi va ularning turlarini yo'qolib ketishini oldini olish maqsadida ko'pkina ilmiy va amaliy chora tadbirlar amaliyotga joriy etilib, o'zining ijobiy samaralarini berib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Yo'sintoifalar, o'simlik, qo'riqxon, yaylov, sfagnum va funariya.

Kirish

Bir qarashda ko'rimsiz va xushmanzara bo'lmagan yo'sintoifalar tabiatda juda va muhim rol o'ynaydi. Ular tabiatda quyosh nurini qabul qilish kislorod ajratib moddalarning davriy aylanishini ta'minlab shuningdek yo'sintoifalar boshqa o'simliklar singari biosferaning muhim komponenti sifatida xizmat qilib xuddi odam singari ajralmas qismi hisoblanadi.

Yo'sinlar — o'zgaruvchan haroratda ham ya'ni namgarchilikka yoki qirg'oqchilikda shuningdek kam hosildor muhitlarda ham jamoa hosil qilib o'sa oladi. Bunday joylarda boshqa yuksak o'simliklar ahyon – ahyonda yoki umuman uchrashi juda qiyin. Yo'sinlar odatda birlamchi o'simliklar guruhi tarkibiga kirib ular qoyalarga, toshlarga va suvli yalong'och tuproqlarga o'sa oladigan pioner o'simliklar hisoblanadi. O'sha muhitda birinchi paydo bo'lgan yo'sinlar asta sekinlik bilan nobud bo'lishi natijasida boshqa yo'sinlar yoki yopiq urug'li o'simliklar o'sishi uchun muhit yaratib beradi [42,43,44]. Ayniqsa kakku zig'iri (*Polutrichum commune*) bilan yoppasiga qoplana boshlaydi. Keyinchalik sfagnum yo'sinlari paydo bo'lishi o'simliklar qoplamidagi roli asta sekinlik bilan orta boradi va nihoyat yo'sinlarda tashkil topgan botqoqlik hosil bo'ladi.



Keyinchalik o'rmonning asta sekinlik tiklanish natijasida tuproqdagi namlik darajasi o'zgarib boshlaydi. Bu esa sfagnum yo'sinlari va kakku zig'iri o'z o'rnini boshqa yo'sinlar va gulli o'simliklarga ajrata boshlaydi. Shimoldagi tayga zonalarida yog'ingarchilik yuqori bo'lishi natijasida ko'pchilik gulli o'simliklar namgarchilik va sovuq iqlimga moslasha olmay nobud bo'la boshlaydi va ularning qoldiklari organik o'g'itlarga aylanib torf yo'sinlarning o'sishi tezlashib torfli qatlam hosil qilib yerning yoppasiga gilamdek egallaydi. Agar insoniyat o'tloq hayotiga aralashmasa ya'ni suvni va havoni ta'minlamas ekan bu o'tloqlar keyinchalik botqoqlikka aylanadi. Sfagnumli botqoqliklar ahamiyati juda katta, ya'ni ulardan torf undan yoqilg'i sifatida foydalanadi. Shuningdek kimyo sanoati uchun xomashyo materiali hisoblanib qurilish va qishloq xo'jaligi uchun ham muhim xom ashyo hisoblanadi. Insoniyat bevosita yo'sintoifalarni bir qancha turlaridan foydalaniladi. Sfagnum yo'sini antibiotik xususiyatga ega bo'lib, u o'ziga katta namlik to'plab va issiqlikni o'tkazmaydi. Izolyasiya vositasi sifatida qo'llaniladi. Ayniqsa medisina yaralarga bog'lash uchun bog'lam sifatida ishlatiladi. Shuningdek bir qancha halq xo'jaligida (ayniqsa qish vaqtlarida) yosh bolalarni tagiga to'shaydigan taglik vositasi sifatida bir qancha xalqlar ishlatiladi. Sfagnum yo'sinlari qurilishda issiqlik ezolyasiyasi sifatida akvariumlar uchun bir qancha yo'sinlardan manzarali o'simlik sifatida o'stirish mumkin, masalan suzuvchi richchiya misol bo'la oladi.



Sfagnum va bargli yo'sinlari mevalarni uzoq saqlashda uning ostki qismiga to'shsh va o'rash uchun yaxshi material hisoblanadi. Shuningdek chorva mollarining tagiga to'shshda ba'zan medisinada dezenfeksiyalovchi material sifatida ishlatiladi. Biroq sfagnum yo'sinlari zarar ham keltiradi. Ular tundra sharoitida o'tloq va yaylov pichanzorlarini botqoqlantirib ayniqsa ko'p zarar yetkazadi [29,32,38]. Xozirda nam o'lchagich funariya (*Funaria hugrametria*) eksperimental botanik tajribalarida obyekt sifatida turli tashqi muhit faktorlarini o'simliklarga ta'sirini o'rganiladi. Yo'sintoifalarda shuningdek atmosferaning ifloslanishi indikator aniqlaydigan o'simlik sifatida ham foydalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абрамова А.Л., Абрамов И.Л. Мхи ушелья Кондара (Таджикская ССР). Новости сист. низш. раст. Л.: 1964, с.325-341.
2. Абрамова А.Л., Абрамов И.И. Сфагновые мхи в горах Средней Азии. Новости сист. низш.раст. Л.: 1970,с. 333-346.
3. Абрамов И.И., Волкова Л.А. Определитель листостебельных мхов Карелии// Арктоа. -1998. Т.7, Прилож.1. - 390 с.
4. Абрамова А.Л., Ладыженская К.И., Савич-Любицкая Л.И. Андрезевые и Бриевые (Тетрофиссовые, Политриховые, Буксбаумиевые, Шистостегиевые) мхи. – В кн.: Флора споровых растений СССР. Т. Ш. Листостебельные мхи (2). Изд.АН СССР, М.- Л.: 1954, с 141 – 305.
5. Абрамова А.Л., Маматкулов У.К. Барбула Иогансена (*Barbula Johansenii* Williams) в горах Средней Азии. – Докл. АН ТаджССР, т. 1X, №18, 1966, с. 41 – 44.
6. Абрамов И.И., Абрамова А.Л., Дуда И.К флоре печеночных мхов Средней Азии. – В кн.: Новости сист. низш. раст. т. 10. – Л.: Наука, 1973, с.

KOMPLEKS SONNING TRIGONOMETRIK SHAKLI

Raxmatov Alisher Shirinboyevich. Jizzax davlat pedagogika universiteti
“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrası o’qituvchisi
alisherraxmatov0@gmail.com

Komilov Shaxzod Zokirjon o’g’li. Jizzax davlat pedagogika universiteti 4-kurs
talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kompleks sonning trigonometrik shakli haqida batafsil ma'lumot beriladi. Dastlab, kompleks sonlarning asosiy tushunchalari va ularning moduli hamda argumenti tushuntiriladi. Keyinchalik, Euler formulasi asosida kompleks sonning trigonometrik shakli $z=r(\cos\theta+isin\theta)$ ko‘rinishida ifodalanishi tushuntiriladi. Maqolada kompleks sonlarning trigonometrik shaklda ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga oshirish va ildiz chiqarish amallari misollar bilan yoritiladi. Shuningdek, ushbu shaklning elektronika, fizika va injiniringdagi qo‘llanilishi haqida ham qisqacha ma’lumot beriladi. Maqola matematikani chuqur o‘rganayotgan talabalar, muhandislar va ilmiy izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: kompleks son, trigonometrik shakl, modul, argument, Euler formulasi, polar koordinatalar, De Moivre formulasi, haqiqiy qism, mavhum qism, matematik formulalar.


Kirish: Matematikaning rivojlanishi davomida turli muammolarni yechish jarayonida yangi son tushunchalari paydo bo‘lib kelgan. Haqiqiy sonlar to‘plami (musbat, manfiy, butun, kasr, irratsonlar) matematik ehtiyojlarni ma’lum darajada qondirgan bo‘lsa-da, ayrim masalalarda $x^2+1=0$ kabi tenglamalarni yechishda yangi sonlar tushunchasi kerak bo‘ldi. Chunki bu tenglamada hech qanday haqiqiy son x ning kvadrati manfiy bo‘lishiga olib kelmaydi.

Haqiqiy sonlar bilan ish ko‘rilganda noldan farqli har qanday haqiqiy sonni

kvadrati musbat bo'ladi deyilgan edi. Ammo kvadrati manfiy bo'lgan sonlar bilan ham ish ko'rishga to'g'ri keladi. Bunday sonlar tabiiyki haqiqiy son bo'lmaydi.

Koordinatalar boshini qutb, Ox o'qning musbat yo'nalishini qutb o'qi deb \textcircled{z} kompleks tekislikda qutb koordinatalar sistemasini kiritamiz. φ va r $A(a,b)$ nuqtaning qutb koordinatalari bo'lsin.

A nuqtaning qutb radiusi r , ya'ni A nuqtadan qutbgacha bo'lgan masofa $z=a+bi$ kompleks sonning **moduli** deyiladi va $|z|$ kabi belgilanadi.



Pifagor teoremasiga binoan 1-chizmadagi to'g'ri burchakli OAB uchburchakdan $r = \sqrt{a^2 + b^2}$ kelib chiqadi. Masalan, $z_1 = -3 + 4i$ sonning moduli $r_1 = |z_1| = |-3 + 4i| = \sqrt{3^2 + 4^2} = 5$ ga teng. Noldan farqli har qanday kompleks sonning moduli musbat haqiqiy sonidir.

A nuqtaning qutb burchagi φ ni z kompleks sonning **argumenti** deyiladi va $Argz$ kabi belgilanadi. Argument bir qiymatli aniqlanmay, balki $2\pi k$ qo'shiluvchi qadar aniqlikda aniqlanadi, bunda k -butun son. Argumentning hamma qiymatlari orasida $0 \leq \varphi < 2\pi$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi bittasini tanlaymiz. Bu qiymat **bosh qiymat** deyiladi va $\varphi = argz$ kabi belgilanadi.

Dekart va qutb koordinatalari orasidagi bog'lanish $a = r \cos \varphi$, $b = r \sin \varphi$ ni hisobga olib $z = a + bi = r \cos \varphi + i r \sin \varphi$ yoki $z = r(\cos \varphi + i \sin \varphi)$ (1) tenglikka ega

bo'lamiz.

Bu tenglikning o'ng tomonidagi ifoda $z=a+bi$ kompleks sonning **trigonometrik shakldagi yozuvi** deb ataladi.

Qutb burchagi $\varphi = \arctg \frac{b}{a}$ kabi topilishi ma'lum.

Shunday qilib, z kompleks sonning moduli deb uni tasvirlovchi vektorning uzunligiga, argumenti deb shu vektorning Ox o'qning musbat yo'nalishi bilan tashkil etgan burchagiga aytilar ekan.

$\varphi = \arctg \frac{b}{a}$ argumentni hisoblashda z kompleks sonning koordinatalar tekisligining qaysi choragida yotishini hisobga olish kerak, chunki $\arctg \frac{b}{a}$ qiymatga φ argumentning ikkita qiymatlari mos keladi. Shuning uchun

Research Science and
Innovation House

$$\varphi = \arg z = \begin{cases} \arctg \frac{b}{a}, & \text{agar } a > 0, b > 0 \text{ bo'lsa,} \\ \pi + \arctg \frac{b}{a}, & \text{agar } a < 0, b \text{ istalgan son bo'lsa,} \\ 2\pi + \arctg \frac{b}{a}, & \text{agar } a > 0, b < 0 \text{ bo'lsa.} \end{cases}$$

tenglikdan foydalanish kerak. Masalan,

$$\begin{aligned} \arg(1+i) &= \arctg 1 = \frac{\pi}{4}, \text{ chunki } a=1 > 0, b=1 > 0, & \arg(-1+i) &= \\ &= \pi + \arctg(-1) = \pi - \frac{\pi}{4} = \frac{3\pi}{4}, \text{ chunki } a=-1 < 0, b=1 > 0, & \arg(-1-i) &= \pi + \arctg 1 = \frac{5\pi}{4}, \\ \text{chunki } a=-1 < 0, & b=-1 < 0, & \arg(1-i) &= 2\pi + \arctg(-1) = 2\pi - \frac{\pi}{4} = \frac{7\pi}{4}, \text{ chunki} \\ & a=1 > 0, b=-1 < 0. \end{aligned}$$

Kompleks sonning $z=a+bi$ ko'rinishdagi yozuvi kompleks sonning **algebraik** shakli deyiladi.

Kompleks son vektor shaklida tasvirlanganda haqiqiy songa $0x$ o'qda yotuvchi vektor, sof mavhum songa $0y$ o'qda yotuvchi vektor mos keladi.

1-misol. $z=a+bi$ va $\bar{z}=a-ib$ qo'shma kompleks sonlar bir xil modullarga ega va argumentlarining absolyut qiymatlari teng, ishoralari qarama-qarshi ekanligini ko'rsating.

Yechish. 2-chizmadan

$$|z|=r=\sqrt{a^2+b^2} \text{ va } |\bar{z}|=r=\sqrt{a^2+b^2}$$


ekani, ya'ni $|z|=|\bar{z}|$ va $\arg z = -\arg \bar{z}$ ekani kelib chiqadi.

Izoh: Har qanday haqiqiy A sonni ham trigonometrik shaklda yozish mumkin, ya'ni $A > 0$ bo'lsa, $A = A(\cos \theta + i \sin \theta)$,


(2)

$$A < 0 \text{ bo'lsa, } A = |A|(\cos \pi + i \sin \pi)$$

tengliklar o'rinlidir.



2-chizma.



3-chizma.

2-misol. $z_1=1-\sqrt{3}\cdot i$, $z_2=2i$, $z_3=-2$, $z_4=4$ kompleks sonlar trigonometrik shaklda yozilsin.

Yechish. 1) $z_1=1-\sqrt{3}\cdot i$ son uchun $a=1$, $b=-\sqrt{3}$, $r=\sqrt{1^2+\sqrt{3}^2}=2$,


$$\operatorname{tg}\varphi = -\frac{\sqrt{3}}{1} = -\sqrt{3}, \quad \varphi = 2\pi - \operatorname{arctg}\sqrt{3} = 2\pi - \frac{\pi}{3} = \frac{5\pi}{3}.$$

Shunday qilib, $z_1=1-\sqrt{3}\cdot i=2\left(\cos\frac{5\pi}{3}+i\sin\frac{5\pi}{3}\right)$.

2) $z_2=2i$ -sof mavhum son. $a=0$, $b=2$, $r=\sqrt{0^2+2^2}=2$,

$$\varphi=\frac{\pi}{2}, \quad z_2=2i=2\left(\cos\frac{\pi}{2}+i\sin\frac{\pi}{2}\right).$$

Research Science and
Innovation House



(4-chizma).

5-misol. $|z+2-i|=|z+4i|$ (α) tenglikni qanoatlantiruvchi z kompleks sonlar to'plami \mathbb{Z} kompleks tekisligida nimani ifodalaydi?

Yechish. $z=x+iy$ desak (α) tenglikni $|x+iy+2-i|=|x+iy+4i|$ yoki $|x+2+i(y-1)|=|x+i(y+4)|$ ko'rinishda yozish mumkin. Oxirgi tenglikni kompleks sonni modulini topish formulasiga asoslanib

$$\sqrt{(x+2)^2 + (y-1)^2} = \sqrt{x^2 + (y+4)^2} \quad (\beta)$$

Research Science and
Innovation House

kabi yozamiz. Bu yerdagi $\sqrt{(x+2)^2 + (y-1)^2}$ ifoda $z=x+iy$ kompleks songa mos keluvchi $A(x,y)$ nuqtadan $M(-2;1)$ nuqtagacha masofani, $\sqrt{(x^2 + (y+4)^2)}$ esa shu $A(x,y)$ nuqtadan $N(0;-4)$ nuqtagacha masofani ifodalaydi. Demak, (β) tenglik $A(x,y)$ nuqtadan $M(-2;1)$ va $N(0;-4)$ nuqtalargacha masofalar teng ekanligini ko'rsatadi. Kesmaning o'rta perpendikulyari uning uchlaridan bir xil masofada yotishini hisobga olsak berilgan tenglamadagi kompleks sonlariga \mathbb{Z} kompleks tekislikdagi MN kesmani o'rta perpendikulyarini ifodalovchi to'g'ri chiziqning nuqtalari to'plami mos kelishi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Keldiyor U., Ergashev M., Xudoyberganov A. – *Oliy matematika* Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2018.
2. Rahmatullayev Sh., *Matematika asoslari* Toshkent: O'zbekiston Fanlar akademiyasi, 2020.
3. Ahmedov I., Hamidov B., Rahmonov U. Matematika (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik) Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2017.
4. Karimov U. – *Kompleks sonlarning analitik funksiyalari* O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Matematika instituti jurnali, 2019-yil.
5. Ziyouz.com – Matematika bo'yicha elektron darsliklar Manzil: <https://ziyouz.com>
6. O'zbekcha Vikipediya – Kompleks sonlar Manzil: https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompleks_sonlar

QO‘RIQLASH TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH

Gadayev Doniyor Rajabovich. Jizzax davlat pedagogika universiteti, “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

doniyorgadaev7@gmail.com

Bo’riboyev Baxriddin Tursunboy o’g’li. Jizzax davlat pedagogika universiteti, 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inshootlarni qo‘riqlash tizimini matematik modellashtirish asosida tashkil etish usullari ko‘rib chiqiladi. Qo‘riqlash tizimlarining samaradorligini oshirish maqsadida xavfsizlik tahdidlarini baholash va optimallashtirishga yo‘naltirilgan matematik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada turli inshootlar uchun qo‘riqlash tizimlarining optimal ishlashini ta’minlash maqsadida taklif etilgan matematik model va algoritmlar misollar orqali bayon etiladi. Ushbu yondashuv qo‘riqlash tizimlarining samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi.

KALIT SO‘ZLAR: Inshootlarni qo‘riqlash, matematik modellashtirish, xavfsizlik tizimlari, IoT (Internet of Things), kompyuter simulyatsiyasi

KIRISH: Hozirgi kunda inshootlarni qo‘riqlash va xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sanoat korxonalari, strategik obyektlar, ijtimoiy infratuzilma va boshqa muhim inshootlar xavfsizligi nafaqat moliyaviy yo‘qotishlarning oldini olish, balki inson hayoti va ekologik xavfsizlikni ta’minlash uchun ham zarurdir. An’anaviy qo‘riqlash usullari ko‘pincha inson omiliga bog‘liq bo‘lib, samaradorligi past bo‘lishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar esa sun‘iy intellekt, IoT (Internet of Things) va matematik modellashtirish orqali xavfsizlik tizimlarini yanada rivojlantirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, matematik modellashtirish yordamida qo‘riqlash tizimlarini optimallashtirish, tahdidlarni bashorat qilish va samarali qarorlar qabul qilish imkoniyati ortib bermoqda. Ushbu maqolada inshootlarni qo‘riqlash tizimini matematik modellashtirish asosida tashkil etishning ahamiyati, uning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda mavjud usullarning tahlili ko‘rib chiqiladi. Mazkur yondashuv qo‘riqlash tizimlarining samaradorligini oshirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

Matematik modellashtirish tushunchasi va uning qo‘llanilishi

Matematik modellashtirish – real dunyodagi jarayon va tizimlarni matematik formulalar, tenglamalar va algoritmlar yordamida tavsiflash va tahlil qilish usulidir. Bu yondashuv turli sohalarda, jumladan, texnika, iqtisodiyot, ekologiya va xavfsizlik tizimlarini optimallashtirishda keng qo‘llaniladi.

Qo‘llanilish sohalari:

- ✓ Xavfsizlik tizimlarini modellashtirish va optimallashtirish.
- ✓ Tizim samaradorligini baholash va tahdidlarni prognoz qilish.
- ✓ Resurslarni optimal taqsimlash va xarajatlarni kamaytirish.

Qo‘riqlash tizimlarini modellashtirishga oid yondashuvlar

Qo‘riqlash tizimlarini matematik modellashtirishda turli usullardan foydalaniladi:

- ✓ Deterministik modellar
- ✓ Stoxastik modellar
- ✓ Dinamik va statik modellar
- ✓ Optimizatsiya usullari va algoritmlari
- ✓ Modellashtirishning afzalliklari va cheklovlari

✓ Afzalliklari:

- ✓ Tizim samaradorligini oldindan baholash va optimallashtirish.
- ✓ Xavfsizlikni mustahkamlash uchun ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish.
- ✓ Resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish.

✗ Cheklovlari:

- ! Haqiqiy hayotdagi barcha omillarni modelga kiritish qiyin.
- ! Modellashtirish natijalari kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga bog‘liq.
- ! Ba’zi modellar murakkab bo‘lib, ulardan foydalanish uchun maxsus dasturiy ta’minot va malaka talab etiladi.

Matematik modellashtirish qo‘riqlash tizimlarini yanada samarali va xavfsiz qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Turli modellashtirish yondashuvlari tahdidlarni bashorat qilish, xavfsizlik strategiyalarini takomillashtirish va resurslarni optimal taqsimlash imkoniyatini beradi. Kelgusida yanada rivojlangan texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish bilan integratsiya qilinishi qo‘riqlash tizimlarini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Qo‘riqlash tizimini matematik modellashtirishning asosiy usullari

Inshoatlarni qo‘riqlash tizimlarini samarali tashkil etish va ularning ishlashini tahlil qilish uchun matematik modellashtirishdan keng foydalaniladi. Matematik modellar yordamida xavfsizlik tizimlarining samaradorligi baholanadi, tahdidlarni aniqlash strategiyalari ishlab chiqiladi va resurslardan optimal foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Qo‘riqlash tizimlarini modellashtirishda quyidagi asosiy usullar qo‘llaniladi:

1. Deterministik modellar

Deterministik modellar – aniq belgilangan qoidalar asosida ishlaydigan, tasodifiylik ta’sirini inobatga olmagan modellar hisoblanadi. Ushbu modellar qo‘riqlash tizimining qat’iy qonuniyatlar asosida ishlashini ta’minlashga yordam beradi.

◆ Misollar:

- Videokuzatuv kameralari qamrov hududini hisoblash.
- Qo‘riqlash punktlarining optimal joylashuvini aniqlash.
- Kirish-chiqish nazorati bo‘yicha qat’iy qoidalar asosida ishlaydigan tizimlar.

◆ Afzalliklari:

- ✓ Oddiy va aniq hisob-kitob qilish imkonini beradi.
- ✓ Xavfsizlik tizimlarini loyihalashda muhim rol o‘ynaydi.

◆ Kamchiliklari:

- ✗ Haqiqiy hayotda tasodifiy omillar (masalan, hujum ehtimollari) inobatga olinmaydi.
- ✗ Noaniq vaziyatlarni tahlil qilishda samarasiz bo‘lishi mumkin.

2. Stoxastik modellar

Stoxastik modellar – qo‘riqlash tizimining ishlash jarayonida tasodifiy hodisalarning ta’siri hisobga olinadigan modellar bo‘lib, ehtimollik nazariyasiga asoslanadi. Ushbu modellar tahdidlarni bashorat qilish va xavflarni minimallashtirish uchun ishlatiladi.

◆ Misollar:

- Ob’ektga noqonuniy kirish ehtimolini aniqlash.
- Qo‘riqchilar va patrullarning harakat marshrutlarini optimallashtirish.
- Xavfsizlik sensorlarining xato ehtimolini tahlil qilish.

◆ Afzalliklari:

- ✓ Haqiqiy xavf-xatarlarni bashorat qilish imkonini beradi.
- ✓ Dinamik va o‘zgaruvchan muhitga moslashuvchan.

◆ Kamchiliklari:

- ✗ Hisoblash murakkabligi yuqori bo‘lishi mumkin.
- ✗ Tasodifiylik sababli natijalarning noaniqlik darajasi yuqori bo‘lishi mumkin.

3. Dinamik va statik modellar

Statik modellar vaqt omilini hisobga olmaydi va tizimni muayyan vaqt momentida tahlil qiladi. Bu modellar odatda tizimlarning hozirgi holatini baholash va rejalashtirishda qo‘llaniladi.

◆ Misollar:

- Qo‘riqlash kameralarining optimal joylashuvini hisoblash.
- Qo‘riqlash resurslarining taqsimotini tahlil qilish.

◆ Afzalliklari:

- ✓ Hisoblash nisbatan sodda.
- ✓ Uzoq muddatli rejalashtirish uchun mos keladi.

◆ Kamchiliklari:

- ✗ Tizimning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini ko‘rsata olmaydi.

Dinamik modellar vaqt o‘tishi bilan tizimning qanday rivojlanishini tahlil qiladi. Ushbu modellar real vaqt rejimida xavfsizlik tizimlarini boshqarish va ularga javob berish imkonini beradi.

◆ Misollar:

- Real vaqtda xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va ularga javob berish.
- IoT texnologiyalaridan foydalangan holda xavfsizlikni boshqarish.
- Qo‘riqlash xodimlarining joylashuvini optimallashtirish.

◆ Afzalliklari:

- ✓ Haqiqiy vaqt rejimida xavfsizlik holatini tahlil qilish imkonini beradi.
- ✓ Tizimning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi.

◆ Kamchiliklari:

- ✗ Murakkab tahlil va katta hajmdagi hisoblashlarni talab qiladi.

4. Optimizatsiya usullari va algoritmlari

Qo‘riqlash tizimining samaradorligini oshirish va resurslardan optimal foydalanish uchun optimallashtirish usullari va algoritmlari keng qo‘llaniladi.

◆ Optimizatsiya usullari:

- Chiziqli dasturlash – xavfsizlik xodimlarini joylashtirish va resurslarni taqsimlash uchun ishlatiladi.
- Dinamik dasturlash – xavfsizlik muammolarini bosqichma-bosqich hal qilish imkonini beradi.
- Genetik algoritmlar – eng samarali qo‘riqlash strategiyalarini topish uchun ishlatiladi.
- Graf nazariyasi va yo‘l topish algoritmlari – qo‘riqchilarning harakat yo‘nalishlarini optimallashtirish va tahdidlarning tarqalishini bashorat qilish uchun ishlatiladi.

◆ Misollar:

- Xavfsizlik kameralarining optimal joylashuvini topish.
- Qo‘riqlash punktlari va patrul marshrutlarini optimallashtirish.
- Tahdidlarni minimallashtirish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqish.

◆ Afzalliklari:

- ✓ Resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.
- ✓ Xavfsizlik darajasini maksimal darajaga yetkazish imkoniyatini yaratadi.

◆ Kamchiliklari:

- ✗ Algoritmlar murakkab hisob-kitoblarni talab qilishi mumkin.
- ✗ Real vaqt rejimida ishlash uchun yuqori hisoblash quvvatini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov A., Yoqubov Sh. Matematik modellashtirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Karimov U., Saidov A. Texnik tizimlarni modellashtirish va tahlil qilish. – Toshkent: Texnika, 2020.
3. Raximov B. Axborot xavfsizligi va monitoring tizimlari. – Toshkent: Innovatsiya, 2019.
4. Mamatqulov I., To‘rayev N. Differensial tenglamalar va ularning amaliy qo‘llanilishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.

5. G‘ulomov S., Abduqodirov A. Axborot tizimlari va texnologiyalari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
6. Jabborov O. Inshoatlarni qo‘riqlashda sun’iy intellekt imkoniyatlari // Axborot xavfsizligi jurnali, 2023, №2.
7. Axmadovich, M. B. (2020). Sfera sirtida joylashgan uchburchaklarni yechishning ba'zi usullari. Science and Education, 1(2), 23-27.
8. Ахмадович М. Б. . (2024). Интерактивные Веб-Технологии Для Развития Логического Мышления Инженеров Будущего В Условиях Цифровой Трансформации Образования. Miasto Przyszłości, 52, 755–761. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4713>



**Research Science and
Innovation House**

“BAHRA-L-FAVOID” – AN’ANA VIY HADIS TO‘PLAMI SIFATIDA

Sarvar U.Muxammadiyev

Farg’ona Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

“Bahra-l-Favoid” asari, Abu Bakr Kalobodiyning islom ilmlari va hadislar haqidagi yirik asaridir. Bu asar hadislarining zohiriy va botiniy ma’nolarini o’rganib, tasavvufiy, axloqiy va falsafiy jihatlarini keng yoritadi. Asar 223 hadisni o’z ichiga oladi, ularning har biri manaviy, ruhiy va tarbiyaviy nuqtai nazarlardan sharhlanadi. Abu Bakr Kalobodiy hadislarining ma’nolarini tushuntirishda o’z uslubiga ega bo’lib, xalqni qulaylikka yo’naltirish va sevgining ilohiy mohiyatini tushunishga katta e’tibor qaratadi. Ushbu maqolada Abu Bakr Kalobodiyning “Bahra-l-Favoid” asarining tasavvufiy va axloqiy o’rni, hadislarini sharhlash uslubi va uning zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda tutgan o’rni tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Abu Bakr Kalobodiy, “Bahra-l-Favoid”, hadis, tasavvuf, axloq, zohiriy va botiniy ma’no, ruhiy tarbiya, islom ilmlari, hadislar sharhi, “Bahra-l-favoid al-musamma bi ma’oni-l-axbor”, “Ma’oni-l-asar”, “Ma’oni-l-axbor”, “Miftahu-l-a’oni axbor”, “Ma’oni-l-ahodis bi mustavfi”, “Ma’oni-l-axbor muxtabaviy”.

KIRISH

Abu Bakr Kalobodiyning “Bahra-l-favoid” asarining nomlanishi turlicha ya’ni: “Bahra-l-favoid al-musamma bi ma’oni-l-axbor”, “Ma’oni-l-asar”, “Ma’oni-l-axbor”, “Miftahu-l-a’oni axbor”, “Ma’oni-l-ahodis bi mustavfi”, “Ma’oni-l-axbor muxtabaviy” shakllarda tadqiqotlarda uchraydi. Turk olimi Fuvat Sezgin bu asarni (573 h.) yilda yozilganini ta’kidlaydi. Asarning nusxalari mahalliy va xorijiy fondlarda saqlanadi. Abu Bakr Kalobodiy yashagan davr islom ilmlari rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratilgan edi. Shuningdek, adabiyot, tarix, geografiya, matematika va boshqa diniy, dunyoviy ilmlar rivoj topdi. Movarounnahr va Xuroson o’lkalaridan ko’plab ulamolar, adiblar, olimlar yetishib chiqdi. Arab allomasi Saolibiy Movarounnahr va Xuroson shaharlarini kezib chiqib bu diyorda ijod etgan 120 dan ortiq shoir, adib haqida xabar bergan¹. Islom dini Movarounnahrda kirib kelganidan boshlab

¹ Саолибий. Ятимату-д-дахр – Қохира : Дарус-сақофа, 1988. – Б. 101-109.

o‘lkada turli diniy ta‘limotlar, kalom, hadis, tasavvuf maktablari shakllana boshlagan. Shu bilan birga bu ta‘limotlar Movarounnahrda mahalliy diniy, ma‘naviy an‘analar asosida qayta ishlab chiqilgan, boyitilgan va tartibga solingan. Islom va u bilan bog‘liq ilmlarning ayniqsa, tasavvuf, hadis, kalom milliy madaniyat tarixining turli davrlarida ijtimoiy ongning shakllanishiga va rivojlanishiga sezilarli ta‘sir o‘tkazib turgan. Mazkur jarayonga o‘lkadan yetishib chiqqan mutakallim, mutasavvif, faqih, muhaddislar o‘zlarining beqiyos hissalarini qo‘shishgan. Ular orasida Abu Bakr Kalobodiyning xizmati alohida e‘tiborga sazovor.

Abu Bakr Kalobodiy hadis rivoyat qilishda o‘z uslubiga ega hamda hadislarning zohiriy va botiniy ma‘nolariga alohida e‘tibor qaratgan. “Bahr al-favoid” asari uning hadis ilmida ham benazir ekanini ko‘rsatadi. Bu asar manbalarda keltirilishicha, 223 hadisning axloqiy va tasavvufiy sharhini o‘z ichiga olgan. Abu Bakr Kalobodiy mazkur hadislarning botiniy va zohiriy ma‘nolarini uyg‘unlashtirishga harakat qilib, ularni ma‘naviy, ruhiy, axloqiy, falsafiy, sirriy va tarbiyaviy jihatlarini keng sharhlaydi. Shu bilan birga bu kitobdagi hadislar sahih bo‘lib, davr nuqtai nazaridan ham Imom Buxoriy davriga yaqin va birlamchi manbalar sirasiga kiradi. Abu Bakr Kalobodiy mazkur kitobni dinni qulaylik va basitlik (oddiylik) asoslariga rioya etish kerakligi to‘g‘risidagi hadislarni naql etish bilan boshlaydi: Anasdan rivoyat qilinadi: Payg‘ambar (s.a.v.) buyurdilar” Qulaylashtiring, majburlamang, sukun bering (xalqni birlashtiring), nafrat uyg‘otmang. Abu Bakr Kalobodiy ushbu sahih hadisni sharhlab: Xalqni qulaylikka yo‘naltiring; Insonlarni majburlamang; Ya‘ni, insonni insonga muhtoj holga keltirmang; Sukun bering so‘zining ma‘nosi: xalqni birlashtiring; nafrat uyg‘otmang deyilganda, insonlar orasida tafriqa (ayriliq)ni keltirib chiqarmang, degan ma‘noga to‘g‘ri keladi, – deydi.

Abu Bakr Kalobodiy “Bahr al-favoid” asarini aynan muhabbat² borasidagi hadislarni sharhlashdan boshlaydi.

Payg‘ambar (s.a.v.) aytishdi: “Allohni seving. Chunki sizlar Uning ne‘matlaridan bahra olayapsiz. Meni Alloh sizlarni sevishi uchun yaxshi ko‘ring (chunki Muhammad (s.a.v.)ni yaxshi ko‘rganni Alloh ham yaxshi ko‘radi). Meni sevgim uchun oila a‘zolarimni seving”³.

Ushbu hadisda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta sevgi haqida so‘z bormoqda. Ya‘ni, Allohni sevish, Allohning sevgisiga musharraf bo‘lish uchun Uning

² Arab tilida “mahabbat” shaklida yoziladi.

³ Абу Бакр Калободий. Бахра-л-фавоид. Биринчи жилд. 2-саҳифа.

payg‘ambarini sevish va Payg‘ambarning sevgisiga erishish uchun uning oila a‘zolarini sevish. Mazkur hadisni sharhlab Abu Bakr Kalobodiy bu o‘rindagi “seving” so‘zi buyruq ma‘nosida emas, balki Allohning sevgisiga xabar ma‘nosida tushunilishi kerakligini uqtiradi.

Ya‘ni, “Alloh sizlarni sevgani uchun Uni seving va U meni sevgani uchun sizlar ham meni seving, men oilamni yaxshi ko‘rganim uchun sizlar ham ularni yaxshi ko‘ring” deb tushunish kerak. Chunki sevgiga buyurilmaydi. Huddi arablarning: “kenglikda yasha, ajoyibotlarni ko‘rasan” deganidek. Yashashga buyurilmaydi, buyurib bo‘lmaydi.

Yana bu so‘zlarning zohiriy ma‘nosini bilish bilan cheklanilsa to‘g‘ri bo‘lmaydi, deydi. Chunki Allohni ne‘matlar uchun sevdi deyish, sevgining ortida biror tama‘, umid bo‘lishi sevgining yolg‘onligidan dalolat qiladi.

Xoja Muhammad Porso Abu Bakr Kalobodiyga ergashib “Faslu-l-xitob” asarida Allohni do‘st tutish hamma ahli islomga farz. Mana shunga ittifoq qilingan. Alloh buyuradi. “Ularni Alloh sevadigan va ular ham Uni sevadigan”. Rasululloh (s.a.v.): Kishining imoni hamma narsadan Alloh va rasulini ahlu mol va hamma xalqdan yaxshi ko‘rmagunicha durust bo‘lmaydi dedilar. Do‘stlikning ma‘nosi bir yaxshi narsaga va hissiy lazzatga muvofiq keladigan narsaga mayl qilishdir. Buning hammasi hayvonda ham bor. Insonning hayvondan farqi dil basirati qalb ko‘zi bilandir. Kimning aqli va basirati g‘olib bo‘lsa, hayvoniy sifatlardan uzoq bo‘ladi. Unga ilohiyot jamoli va uning ajoyib san‘ati Allohning jamol va jalol sifatlari kashf bo‘ladi. Hamma hissiy lazzatlar uning ko‘ziga haqir past bo‘lib ko‘rinadi. Nazari o‘sha jamolni yaxshiroq tutadi. Birinchi do‘stlikka haqli faqat Allohdir. Har kim boshqani do‘st tutsa, u nodonlikdir. Ammo bir jihati borki, uni Allohga aloqasi borligi jihatidan yaxshi ko‘rsa bo‘ladi. Hech bir mo‘min asl muhabbatdan xoli emas. Lekin farq uch sababdan bo‘ladi. Birinchi sabab dunyoni yaxshi ko‘rish va unga mashg‘ul bo‘lishda har xildir. Boshqa har qanday do‘stlikka nuqson yetadi.

Abu Bakr Kalobodiy “At-ta‘arruf” asarida “Muhabbat – qalbning istagi” – degan fikrni keltirib, uni sharhlaydi. “Sening qalbing, – deb yozadi Abu Bakr Kalobodiy – hech bir takallufsiz Alloh va Unga tegishli narsalarga moyil bo‘lishi. Undan tashqari “Muhabbat – bu mos tushishlik”, ya‘ni Unga itoat qilish va U qaytargan narsalardan qaytish va U hukm qilgan, taqdir qilgan narsalarga rozi bo‘lishdir”.⁴

⁴ Абу Бакр Калободий . Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул кизи. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти – Т.:2002 – 92.6.

Abu Bakr Kalobodiy Abu Abdulloh Nabojiyning “Muhabbat – bu mahubbdan lazzatlanish va Xoliq yo‘lida o‘zini qurbon qilishdir”, – degan fikrini keltirib, uni sharhlar ekan, bunday muhabbatda illat bo‘lmasligi kerakligini alohida shart sifatida qo‘yadi. Mutasavvif: “Sening muhabbatingda hech bir illat qolmasligi va muhabbatingga illat aralashmasligidir”⁵, – deb tushuntiradi.

Mazkur fikrlardan ma‘lum bo‘ladiki, oshiqlik – so‘fiy holatining eng oliy ko‘rinishi, qolgan barcha narsada soxtakorlik, riyo bo‘lishi mumkin, ammo muhabbatda, oshiqlikda bu illat bo‘lmaydi. Abu Bakr Kalobodiy “Bahra-l-favoid” asarida shu yo‘nalishdagi hadislarini sharhlagan. Muhabbat – tasavvufning asosiy ruknlaridan biridir. Shu sababli ham Abu Bakr Kalobodiy o‘z kitobida bu mavzuga alohida to‘xtalib, ilohiy muhabbatni batafsil sharhlashga harakat qiladi. Mutasavvif muhabbatni ikkiga bo‘lib tushuntiradi:

1. “Xos va Om” (ya‘ni xususiy va umumiy muhabbat), yoki iqroriy muhabbat.

2. Vujudiy sevgi, bu sevgi balo yuborish yo‘li bilan bo‘ladi. Bunda sevgi sohibida o‘z nafsiga, xaloyiqqa, sababga, holatga e‘tibor berish bo‘lmaydi, balki u Alloh uchun va Allohdan bo‘lgan narsalar e‘tibori bilan to‘la mashg‘ul bo‘ladi”⁶.

Abu Bakr Kalobodiy “Abul Mug‘is (Xalloy) yonboshlamas ekan, kechalari uxlamay, tun bo‘yi namoz o‘qib chiqar, agar ko‘ziga uyqu kelsa o‘tirib olib, peshonasini tizzasiga qo‘yib bir oz mizg‘ib olar ekan. Kimdir unga: “joningga rahm qilsangchi, desa: “Allohga qasamki, menga meni xursand qiladigan rahmdillik qilinmagan. Eshitmaganmisan, balolarning qattig‘i payg‘ambarlarga, keyin siddiqlarga, keyin esa birin ketin ulug‘ kishilarga keladi”⁷, – deb yozadi.

Abu Bakr Kalobodiy “Muhabbat – bu lazzat, haqiqatda esa kishi lazzatlanmaydi, chunki haqiqat qo‘rquv va hayratlanish ob‘yekti. Insonning Allohga bo‘lgan muhabbati – bu Haqning sirlarini ochish va Unga ta‘zim qilishdir. Inson bunday holatda faqat Haq uchun yaroqli bo‘ladi. Allohning “Seni o‘zim uchun yaratdim – degan so‘ziga binoan”⁸, – deb tushuntiradi.

Tasavvufda bandaning Ilohga muhabbati bilan birga, Ilohning o‘z bandalariga muhabbati ham e‘tiborga olinadi. Bu holat Abu Bakr Kalobodiy nazaridan chetda qolmagan. Mutasavvif “Kimniki Alloh sevgan bo‘lsa, u o‘shaning hayoti, kimki

⁵ O‘sha asar. – B. 92.

⁶Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Тошкент: G‘.G‘улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 92.

⁷ O‘sha asar. – B.125.

⁸ O‘sha asar. – B. 92.

Allohni sevgan bo'lsa, uning hayoti yo'q. Buning ma'nosi, – deydi Abu Bakr Kalobodiy – o'sha shaxsga o'z hayoti lazzat bermaydi. Chunki oshiq o'zida mahubbdan keladigan barcha yaxshi va yomon narsalardan lazzatlanadi, ya'ni oshiqning hayoti yo'q hisobida, chunki u mahub visolini istaydi va Undan uzilib qolishdan qo'rqadi va shunga o'z hayotini baxsh etadi”⁹.

Muhammad (s.a.v.)ning “Sening bir narsaga bo'lgan muhabbating seni ko'r va soqov qiladi”, – degan hadisi bilan mos kelishligini ta'kidlaydi.¹⁰ Shundan so'ng u yanada yaxshiroq tushunilishi uchun muhabbat to'g'risida yozilgan she'rni keltirib, uni badiiy talqin qiladi:

O'ta kuchli muhabbatga qarshi chiqar kuch yo'qdir.

Asl oshiq o'zini qahrga otilganini ko'rgach,

Va unga mahubbdan balolar yetgach lazzatlanadi.

Agarchi uning balolari oshiqda ko'rlikni ziyoda qilsa-da.¹¹

Hujviriyy esa Abu Bakr Kalobodiydan farqli tarzda “ishq” atamasini alohida ko'rsatadi va uni “muhabbat” atamasidan farqlaydi. Hujviriyy “Avvallari so'fiylar Allohga qaratilgan ishq bo'ladi, lekin Allohda ishq bo'lmaydi, deb hisoblashar edi. Bunday hissiyot sevganidan ajralganlarda bo'ladi. Inson Allohdan ajralgan, biroq Alloh insondan ayriliqda emas, shuning uchun inson Allohga ishq qo'yishi mumkin. Bu istilohni Allohga daxli yo'q”¹², – deb ta'kidlaydi.

Abu Abdulloh Hafif Sheroziy “Allohga ishq kalimasini izofa etishni tark etmoq e'tiqod qilingan ishlardan”, – deb yozgan bo'lsa, Qushayriy esa “Ishq sevgida chegaradan o'tmoqdir. Haq ishq bilan vasflanmas, chunki U haddan oshish sifatiga ega emas”¹³, – deb tushuntiradi.

Abdulqodir Iso ham muhabbat haqida: “Allohning O'z bandasiga bo'lgan muhabbati va bandaning Allohga muhabbatining asosida Allohning: “Alloh ularni sevadi va ular, Uni sevadilar”¹⁴, – degan oyati bor deb aytgan.

⁹ Abu Bakr Kalobodiy At-ta'aruf. Tarj. Otaqul Mavlonqul y'g'li va Mavluda Otaqul qizi. T.: G'.G'ulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. – Б.91.

¹⁰ 127. ص. 1992. بيروت. تعليق عليه أحمد شمس الدين. بيروت. 1992. – Б. 127.

¹¹ Abu Bakr Kalobodiy. At-ta'aruf. Tarj. Otaqul Mavlonqul y'g'li va Mavluda Otaqul qizi. T.: G'.G'ulom nomiдаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкнет: 2002. – Б.93.

¹² Ал-Худжвири. Раскрытие скрытого. М.: Единство, 2004. – С.307.

¹³ O'sha asar – В.37.

¹⁴ Абдулкадыр Иса. Истина суфизма. Ансар. 2004. – С.174.

Demak, Abu Bakr Kalobodiy hadislarni o‘z uslubida sharhlagan. Hadislarning zohiriy va botiniy tomonlarini tasavvufiy tushunchalar bilan ham izohlashga, qur‘on oyatlari bilan mustahkamlashga harakat qilgan.

Odamlar orasida Allohga shak uzra ibodat qiladigani ham borki, unga yaxshilik yetsa, o‘sha sababli xotirjam bo‘lur, agar biror baxtsizlik yetsa, (dindan) yuz o‘girib ketur (Haj, 11-oyat)¹⁵.

Ushbu oyatning tafsirida shunday keltiriladi: “Oyatning nozil bo‘lish sababi – Madina shahri atrofida yashaydigan musulmon a‘robiylar Madinaga hijrat qilib kelishgandan keyin ishlari o‘ngidan kelsa, ya‘ni sog‘lom yursa, chorvasi ko‘paysa, xotini o‘g‘il tug‘sa, ko‘ngli taskin topib jim yurar, bordi-yu, buning aksi bo‘lib, betob bo‘lib qolsa yoki xotini qiz tug‘ib qo‘ysa, dindan yuz o‘girib ketishar edi”¹⁶.

Muallif sharh uchun sevgi ma‘nosidagi yana boshqa hadisni keltiradi:

Ma‘nosi: “Alloh biror bandani yaxshi ko‘rib qolsa, Jabroil farishtaga “Men falonchini yaxshi ko‘rdim, sen ham uni yaxshi ko‘r”, – deb amr qiladi. Jabroil o‘z navbatida osmon ahliga: “Robbingiz falonchini yaxshi ko‘rdi, sizlar ham uni yaxshi ko‘ring”, – deb nido qiladi. Bu nido (osmonlardan o‘tib) yerda ham qabul qilinadi hamda suvga tushadi. Suvdan yaxshi odam ham yomon odam ham ichadi va ularning yaxshisi ham yomoni ham o‘sha odamni yaxshi ko‘rib qoladi. Alloh bandalaridan birortasini yomon ko‘rib qolsa ham xuddi shunday bo‘ladi”.

Muallif Alloh bilan bandalar o‘rtasini, insonlarning o‘zaro o‘rtalarini bog‘lashning yagona yo‘li muhabbat deb sharhlaydi.

Anasdan rivoyat qilinadi. Bir kishi Rosullulloh (s.a.v.) oldilariga kelib: “Yo Rasullulloh (s.a.v.), qiyomat qachon? – deb so‘radi. U zot: “U kun uchun nima tayyorlading (nima hozirlab qo‘yding)?” – dedilar. Haligi kishi: “Alloh va Uning rasulining sevgisini”, – deb javob berdi. Rasululloh: “Sen sevganing bilan bo‘lasan”, – dedilar.

Abu Bakr Kalobodiy qiyomatdagi najotga muhabbatni sabab qilib ko‘rsatishga harakat qiladi va shunga munosib hadisni rivoyat qilgan. Inson oxiratga Allohga bo‘lgan sevgisi bilan borsa u najot topguvchilardan bo‘ladi.

Sharq va G‘arb olimlari tomonidan “Bahr al-favoid” asariga qiziqish bo‘lgan. Uni turli tillarda tadqiq qilib tarjimalarini amalga oshirishgan. Asarning muhim

¹⁵ Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири.// таржима ва изоҳлар муаллифи. Абдулазиз Мансур. – Т.: Мовароуннахр, 2018. – Б. 624.

¹⁶ Абу Бакр Калободий. Бахра-л-фавоид. Биринчи жилд. 2-саҳифа.

tomonlaridan biri Abu Bakr Kalobodiy 100 ga yaqin shayxlardan tinglagan 223 ta axloq va ibodatga bag‘ishlangan hadislarni tasavvufiy sharhlari bilan to‘plam shakliga keltirgan. Ibn Arabiy atrofini devorlar bilan o‘radi va Ko‘nyaviy vositasida yakunlandi, degan fikrlar shunga ishora hisoblandi.

Bahra-l-favoid asarining Misr Arab Respublikasi Iskandariya kutubxonasida (1011/1602.y.) ko‘chirilgan nusxasi, Doru-l-kutuba-l-Misriyya (1348/1929.y.)da ko‘chirilgan nusxasi mavjud bo‘lib, ularning 223 hadisdan 79 tasini Hasan Ismoil, Ahmad Farid Mazidiy o‘rgangan. Bu tadqiqot “Bahra-l-favoida-l-mashhur bi ma’oni-l-axbor” nomi bilan 1999 yilda Bayrutda qayta nashr qilingan. Bahra-l-favoidning nusxalaridan birini Seljuk universitetida Fikrat Karpinar tomonidan 223 hadisdan 100 tasi tadqiq etilgan.

Abu Bakr Kalobodiy asarlarida ushbu hadislardan keng foydalangan. Hadislarning isnodi bilan oyat, hadis sohibi so‘zlari, arab urf-odatlar, zarbulmasal, she‘r va so‘fiyona yondashuvlar, istilohlar bilan izohlangan. Abu Bakr Kalobodiy asarda dinni tasavvuf, aql va naqldan ajratmagan. Ma’lumki, “jarh” va “ta’dil” ilmi hadisga oid ilmlarning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham hadis ilmi olimlari, ya’ni muhaddislar bu ilmni yaxshi o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan. Jarh va ta’dil o‘zi qanday ilm ularning o‘rganilishiga to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Jarh” va “ta’dil” – ayblash va adolatli sanash, roviylarning adolatli va zabt haqida bahs yuritib, ularning ishonchli yoki ishonchsizligi haqida yakuniy xulosa chiqarib, roviyga tanqidiy yondashish uslubi. Olimlar roviylarning shaxsi va fe‘l atvoriga jiddiy e’tibor qaratib, ular qilgan rivoyatlarni qabul qilish uchun shartlar qo‘yishgan. Umume’tirof etilgan shartlar:

1. Adolat-bunday roviy avvalo musulmon bo‘lishi, aqli joyida va balog‘atga yetgan bo‘lishi hamda fisq ishlardan xoli bo‘lishi shart.

2. Zabt-roviy ishonchli roviylarga muxolif bo‘lmasligi hamda xotirasi yomon va xayoli parishon bo‘lmasligi lozim. Bu sifatlarga ega bo‘lgan roviy ta’dil (adolatli) hisoblanib, uning rivoyati qabul qilinadi. Aks holda roviyning yomon sifatlari aytilib, uning rivoyati qabul qilinmaydi. Jarh va ta’dil musulmon jamoasining foydasi bo‘lgani uchun g‘iybatga kirmaydi¹⁷.

¹⁷ Муратов Д. Надисшунослик атама ва иборалари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 7.

Yuqorida Abu Bakr Kalobodiyning ushbu masalalardagi fikrlarini tahlil qilingan edi. Muhaddisning hadis ilmi uning roviylariga qo‘yiladigan shartlar haqidagi fikrlari uning bu ilmlarni mukammal bilishiga shubha qoldirmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Movarounnahr ulamolari va mutafakkirlar keng fikrliliklari, ijodiy nuqtai nazarlari bilan dinni ilm darajasiga ko‘tarishdi, diniy ta‘limotni hayot tarziga aylantira olishdi;

Imom Buxoriy “Hadis ilmida sulton” darajasiga yetdi, Imom Moturidiy aqoid ilmida “Hidoyat imomi” deb ulug‘landi, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni “Xojai jahon” rutbasiga musharraf bo‘ldi;

“Bahra-l-favoid” tadqiqiga qiziqishlar bo‘lib, turgan. Abu Bakr Kalobodiy 100 ga yaqin shayxlardan tinglagan 223 ta axloq va ibodatga bag‘ishlangan hadislarning tasavvufiy sharhlarini an‘anaviy to‘plam shakliga keltirgan va hadis ilmi tarixida chuqur iz qoldirgan;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta‘biri bilan aytganda: “Bizning havas qilsa arzigulik buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san‘atimiz ham albatta bo‘ladi¹⁸, – degan fikrlariga mos tadqiqot ob‘yekti tahlil etildi;

Imom Hofiz Abu Bakr Muhammad ibn Ibrohim ibn Ya‘qub Kalobodiy Buxoriy ham avlodlar uchun faxrlanishga yetarli bo‘lgan, “Toju-l-islom” nomi bilan ulug‘langan ajdodlardan biri hisoblanadi. Uning qoldirgan merosi dunyoga yangicha nigoh bilan boqishga undaydi, diniy matnlarni turli burchaklardan turli rakurslardan qarab tahlil qilishga chaqiradi;

Abu Bakr Kalobodiyning quyidagi xulosalari hadislar, Qur‘on oyatlaridan keltirgan hikmatli qarashlari ma‘naviy hayot uchun xizmat qilishiga shubha yo‘q: “Insonlarning insonga g‘amxo‘rlik, mehru-shafqat, mehribonlik qiladigan va kishilar qo‘lidagi narsalarga nazar qilmaydigani Haqqa yaqindir”¹⁹.

Demak, mutasavvif qarashida insonning insonga g‘amxo‘rligi birinchi galda odamning o‘z zotiga hurmati va ehtiromi sifatida qaralsa, mehru-shafqatlilik olam va odamni asrashdek ulug‘vor burchni belgilaydi;

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислам ҳамкорлик ташкилоти Ташки ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи. 18.10.2016.й.

¹⁹ Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул кизи. Тошкент. Ф.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 48.

Alloma “inson hoh olim, hoh johil, yoki arab, yo ajam bo‘lsin o‘zaro mehru shafqatli bo‘lishi lozim”²⁰, – deb hisoblaydi;

U vatanparvar insonlar haqida shunday yozadi: “Bir sayyid tomonidan mamlakat ahliga g‘amxo‘rlik bo‘ldi va o‘sha mamlakat xalqi buni ko‘rib u bizning g‘amxo‘rimiz, deb unga tavakkul qilishdi. Ular o‘sha sayyid ularning muammolarini hal qilgani uchun uni tavakkul qilish darajasiga olib chiqishdi”²¹.

References

1. Саолибий. Ятимату-д-дахр – Қохира : Дарус-сақофа, 1988. – Б. 101-109.
2. Абу Бакр Калободий. Баҳра-л-фавоид. Биринчи жилд. 2-саҳифа.
3. Абу Бакр Калободий . Ат-таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти – Т.:2002 – 92.б.
4. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Тошкент:
5. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 92.
6. Абу Бакр Калободий Ат-таъарруф.Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Т.:
7. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 2002. – Б.91.
التعرف لمذهب أهل التصوف. أبو بكر كالأبادي. تعليق عليه أحمد شمس الدين. بيروت. 1992. ص127.
- 8.
8. Абу Бакр Калободий Ат-таъарруф ли-мазһаби аһли-т-тасаввуф. Қайта нашр. Аһмад Шамсиддин. Бейрут. 1992. – Б. 127.
9. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.Тошкент: 2002. – Б.93.
10. Ал-Худжвири. Раскрытие скрытого. М.: Единство, 2004. – С.307.
11. Абдулкадыр Иса. Истина суфизма. Ансар. 2004. – С.174.
12. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири.// таржима ва изоҳлар муаллифи. Абдулазиз Мансур. – Т.: Мовароуннахр, 2018. – Б. 624.
13. Абу Бакр Калободий. Баҳра-л-фавоид. Биринчи жилд. 2-саҳифа.

²⁰ Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 48.

²¹ Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғли ва Мавлуда Отақул қизи. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б.84.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 02. February 2025

14. Муратов Д. Надисшунослик атама ва иборалари. – Т.: Фан, 2009. – Б. 7.

15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ислом ҳамкорлик ташкилоти Ташқи ишлар вазирлари кенгаши 43-сессиясининг очилиш маросимидаги нутқи. 18.10.2016.й.

16. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи. Тошкент

17. Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 48.

18. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи. Тошкент.

19. Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б. 48.

20. Абу Бакр Калободий. Ат-таъарруф. Тарж. Отакул Мавлонкул ўғли ва Мавлуда Отакул қизи. Тошкент. Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002. – Б.84.



**Research Science and
Innovation House**

“AT-TAARRUF” VA “BAHRA-L-FAVOID” ASARLARINING QIYOSIY TARKIBIY TAHLILI

Sarvar U.Muxammadiyev

Farg’ona Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Abu Bakr Kalobodiy tomonidan yozilgan “At-Ta’arruf” va “Bahra-l-favoid” asarlari tahlil qilinadi. Kalobodiyning bu asarlari tasavvufning nazariy va amaliy jihatlarini o‘z ichiga olgan, shuningdek, o‘z davrida va keyinchalik ham keng e’tirof etilgan muhim asarlardir. “At-Ta’arruf” asari tasavvuf nazariyasini keng yoritib, o‘z davrida va keyinchalik ko‘plab olimlar tomonidan sharhlangan. Abu Bakr Kalobodiyning tasavvufni o‘z nazariy jihatlaridan tozalash va uni tushunishdagi yondashuvi, shuningdek, uning so‘fiylarning hayoti va axloqi haqida keltirgan fikrlari tasavvuf ilmiga katta hissa qo‘shgan. Ushbu maqolada Kalobodiy asarlarini va ularning ilmiy-madaniy ahamiyatini tahlil qilgan holda, tasavvuf ilmiga qo‘shgan ulkan hissa haqida xulosa chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: Abu Bakr Kalobodiy, At-Ta’arruf, Bahra-l-favoid, tasavvuf, ilmiy tahlil, so‘fiylar, Sharq falsafasi, tasavvuf nazariyasi, hadislar, diniy-ma’rifiy asarlar.

KIRISH

Abu Bakr Kalobodiyning “At-Ta’arruf” va “Bahra-l-favoid” asarlarini o‘rganish, tadqiq etish, Movarounnahr ilmiy-madaniy, ma’rifiy-ma’naviy rivojlanish bosqichlarini chuqurroq bilish imkonini beradi. Chunki, uning “At-Ta’arruf” va “Bahra-l-favoid” asarlari o‘z davrida va keyingi zamonlarda ham mashhur bo‘lgan, keyingi davrlarda Sharq hamda G‘arb olimlarining e’tiborini tortgan. “At-Ta’arruf” tasavvuf tarixi, tasavvuf nazariyasiga bag‘ishlangan mukammal asar sifatida ilm ahliga yaxshi tanish. Abu Bakr Kalobodiy ushbu mufassal yozilgan asari bilan tasavvuf olamida o‘z davrida tasavvufning nazariy masalalarini chuqur o‘rgandi. Tasavvufni unga xos bo‘lmagan tushunchalar, rasm-rusum va boshqa turli bid’atlardan tozalashga harakat qildi va bunga erishdi. G‘arb olimi Ulrix Rudolf “Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyoti” nomli kitobida “tasavvuf nazariyasi va amaliyotiga oid “At-Ta’arruf” asari muallifi buxorolik Abu Bakr Kalobodiy X asrda o‘zini ilohiyot

nazariyalarining chuqur bilimdoni sifatida namoyon etgan”¹, – deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, keyingi davr hakim va so‘fiylari Abu Bakr Kalobodiyning mazkur asariga yuqori baho berishgan, jumladan, Shayxu-l-ishroq “Ovorifu-l-ma’orif” asarining muallifi Yahyo Suhravardiy Maqtulga nisbat beriluvchi “Agar at-Ta’arruf bo‘lmaganida, tasavvufni bilmagan bo‘lar edik”, – degan ibora ko‘p allomalarga nisbat beriladi. Bugangi kungacha yetib kelgan “At-Ta’arruf li mazhabi ahli-t-tasavvuf” (“Tasavvuf ahli mazhabi bilan tanishtrish) asari o‘z nomi bilan tasavvufni tanishtirish kitobi hisoblanadi. Abu Bakr Kalobodiy ilohiy ma’rifatni himoya qilish, yoyish va tasavvufning nazariy-ijtimoiy tomonini rivojlantirishda alohida xizmat ko‘rsatdi. Mazkur qo‘lyozma asar nafaqat Markaziy Osiyoda balki, butun islom olamida birinchi umumlashtiruvchi nazariy-tarixiy manba hisoblanadi. Unda tasavvuf tarixi, so‘fiylar hayot tarzi, mashhur so‘fiylar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Mazkur asar, tasavvufni fan sifatida rivojlantirishdagi birinchi yozma manbalardan biridir. Asarda Abu Bakr Kalobodiy o‘zidan ko‘ra ko‘proq o‘sha soha allomalarining so‘zlarini keltirgan. Asarda sahih hadislardan foydalangan. Ularni keyinchalik “Bahra-l-favoid” asarida to‘plagan. At-Ta’arruf asariga ko‘plab sharhlar yozilgan: Mulla Muhammad Olim Shoshiy “Sharhi Ta’arruf”, Alauddin Ali ibn Ismoil Tabriziy “Sharhul-Qodiy”, “Sharhi Abdullah ibn Muhammad Ansoriy Hiraviy”, “Sharhi at-ta’arruf” Imom Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh Mustamliy Buxoriy, Xoja Muhammad Porso ham bu asarga sharh yozgani manbalarda ta’kidlanadi. Abu Bakr Kalobodiy “At-Ta’arruf”ning muqaddimasida kitobning yozilish sabablariga to‘xtalib, “Shu vaziyat meni qo‘lga qalam olib, tasavvuf ahlining tariqatlarini ushbu kitob orqali ko‘rsatib berishga majbur etdi. Qalamim bilan imkoni boricha kashf etdim, zohiriy ilm vositasi ila ishoratlarni tushunmaydiganlar va iboralarini anglamaydiganlar uchun izoh berdim”, – deb yozadi. Shu bilan birga ushbu kitobga shuning uchun ham “Tasavvufni tanishtirish kitobi” deb nom qo‘ydim. Kitobni yozishdan oldin hoziq va mohir musanniflarning kitoblariga murojaat qildim va mashoyixlar bilan birga yashab, ular haqida ustozlardan so‘rab, haqiqiy ahli hollar to‘g‘risidagi hikoyalarni ham o‘qib chiqdim, – deb yozadi.

Abu Bakr Kalobodiy “At-ta’arruf” kitobining qo‘lyozma nusxalaridan biri O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 3154-V raqami ostida saqlanmoqda. Qo‘lyozma kolofonidagi ma’lumotga qaraganda, u hijriy 415 yili (milodiy 1025 y.) ko‘chirilgan bo‘lib, kotibning nomi ko‘rsatilmagan. Abu Bakr

¹ Улрих Рудолф. Ал-Мотурудий ва Самарканд суннийлик илоҳиёт мактаби. Тошкент, 2002. – Б. 121.

Kalobodiyning 991 yilda vafot etganini e'tiborga olinsa, mazkur qo'lyozma muallif vafotidan 34 yoki 35 yil o'tgach ko'chirilgan bo'ladi. Bu esa, qo'lyozma qadimiy ekanidan dalolat beradi. Qo'lyozma ta'liq va nasta'liq (devoniy) xatlarida aralash ko'chirilgan bo'lib Abu Bakr Kalobodiy yashagan davr ta'liq xatidan nasta'liq xatiga o'tish davri bo'lgan. Ko'p o'rinlarda xarflarning nuqtalari qo'yilmagan. Kitob betlanmagan va 90 varaqdan iborat. Mazkur qo'lyozma bo'yicha, asar muqaddima va 63 bobdan iborat. Mazkur qo'lyozma 4 ta asarni o'zida jamlagan bo'lib, Payg'ambar (s.a.v.)ga salovot aytib axloq-odobga oid hadislar keltirilgan, ammo kitob nomi qayd etilmagan. Bu hadislar “Bahra-l-favoid” asariga kirgan hadislar turkumidan bo'lishi mumkin. Yana bir kitob “At-toj fi-l-me'roj” (Me'roj to'g'risida toj kitobi) deb nomlangan bo'lib, unda payg'ambar me'rojining haqiqati to'g'risida fikrlar yuritilgan. Undan so'ng “At-Ta'arruf”ning qisqa ko'chirilgan nusxasi va oxirida “Ba'zi kishilar uchun simo” (eshitish), – deb nomlangan risola ham mavjud. “At-Ta'arruf”ning eng oxirgi nashrini 1992 yilda arab olimi Ahmad Shamsiddin Livanda amalga oshirgan. Mazkur manba O'zbekistonda mavjud. U muqaddima, 75 bob, asarning qismlari va nomlanishi hamda mundarijadan iborat. Bu kitob sal biroz o'zgacha nomlangani bilan farq qiladi, ya'ni “At-Ta'arruf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf” (“Tasavvuf ahli mazhabi bilan tanishish”)². Kitob boblarining nomlanishida ham farq bor, qo'lyozmada tushirib qoldirilgan ba'zi boblar to'ldirilgan.

Abu Bakr Kalobodiy so'fiylik tarixiga nazar solar ekan, bunda eng avvalo so'fiyona tafakkurning muhim jihatlari e'tibor qaratadi. U so'fiylarning olam, Alloh to'g'risidagi, insonning zohiriy va botiniy olami, vahiy va aql, odam fe'llari xususidagi doimiy ilohiy qarashlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning oraliq yo'lini topishda mantiqiy mutanosiblik bo'lishi to'g'risidagi fikrni ilgari suradi. Buni o'sha davr nuqtai-nazaridan hanafiycha tafakkurning mag'zi desa ham bo'ladi.

Mutasavvif o'zining mashhur “At-Ta'arruf” asarida nafaqat tasavvuf ta'limotining muammolarini balki so'fiylarning o'zi kim degan savolga ham javob beradi va so'fiylarni quyidagicha ta'riflashga harakat qiladi: “So'fiy – ularning zohiriy ahvoliga berilgan ta'rifdir. Zero, so'fiylar – bir qavmdirki, ular dunyodan yuz o'g'irgan, vatanlaridan chiqib ketgan, o'z qavmlari yo'lida hijrat qilgan, shaharlarda oh (voh) chekib yurgan, o'zlarini ochlikka majbur etgan va jismlarini juda nozik qilgan, dunyodan hech narsa olmaganlar. Ramag'da jonni saqlash uchun yeganlar. Ular o'z

² Abu Bakr Kalobodiy At-tasavvuf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf. Abu Bakr Kalobodiy. Tashkent: G'ulistan nashriyoti, 1992. ص. 1992. Bayrut. 1992.

vatanlaridan chiqib ketishgani uchun g‘ariblar deb nom olishgan. Safarda ko‘p bo‘lishgani uchun sayohatchilar deb nomlanishgan. Ularning qishloqlarga bo‘lgan sayohatlari va zarurat paytida g‘orlarga kirib ketishlarini shahar ahli “Shakfatiya” deb atashgan. “Shakfatiya” lug‘atda g‘or yoki shunga o‘xshash joylarga berilgan nomdir”³. Abu Bakr Kalobodiy bu boradagi fikrini davom ettirib, so‘fiy so‘zining kelib chiqishining etimologiyasiga quyidagicha izoh beradi: “Safo, safva, sof, suffa deyilgani bilan ma‘nosi so‘fiylikdir. Mana shu sufiyadagi “f” yoki “vov”, harfi kelsa ham ma‘no o‘sha. “Vov”lik bo‘lishi ham joiz. Sofiya degani tillarda ishlatib kelayotgan kalimadir. Agar bu kalima suf-jun lafzidan olinadigan bo‘lsa, lafz o‘z o‘rnida bo‘ladi va lug‘at bo‘yicha ham to‘g‘ri hisoblanadi”⁴. Mazkur tahlildan Abu Bakr Kalobodiyning har bir arabiy so‘zning etimologiyasini juda yaxshi biladigan tilshunos olim ekani ham ko‘zga tashlanadi. U so‘fiylarning jundan ust-bosh kiyishlari payg‘ambarlarning ust boshlariga havasdandir”⁵, – deb ta’kidlaydi.

Yuqorida keltirilganidek, ahli hollarning libosi jundan bo‘lishi ham ularning payg‘ambar kiyimlariga havaslaridan hisoblanib, Muhammad (s.a.v.) kishilarning chaqiriqlariga jundan to‘qilgan kiyim kiyib borganliklari hadislarda keltiriladi. Abu Muso Ash‘ariy aytadi: “Nabiy (s.a.v.) jundan kiyinar edilar va eshakka minib, faqir-kambag‘allarning chaqiriqlariga kelardilar”⁶. Abu Bakr Kalobodiy Allohning birligiga alohida o‘rin beradi va tavhid, Haqning yakka-yu yagonaligini tushuntirishda Haqning azaliy sifatleri orqali uni nazariy jihatdan tushuntirishga harakat qiladi. Artur Jon

Research Science and Innovation House

³21. ص. 1992. بيروت. تعليق عليه أحمد شمس الدين. بيروت. 1992. – ب. 21.

⁴O‘sha asar.-B.18.

⁵O‘sha asar.-B. 19.

⁶O‘sha asar . -B.17.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 02. February 2025

Arberri⁷ “At-Ta’arruf”ga qilgan The Doctine of the Sufis⁸ nomli ingliz tilidagi tarjimasi muqaddimasida Abu Bakr Kalabodiyning shuhrati “At-Ta’arruf” ustiga bino bo‘lgan deydi. Ushbu asar ta’lif etilishi ko‘p o‘tmay tasavvuf bo‘yicha qimmatli asar sifatida qabul qilindi va unga ko‘plab sharhlar bitildi. Asar qanchalar qadrlangani yorqin tasvirini Suhravardiy Maqtul (587/1191)ning qo‘p iqtibos keltiriladigan so‘zida ko‘rish mumkin: Ta’arruf bo‘lmaganida tasavvufni bilmagan bo‘lar edik. Hoji Xalifa kitob haqidagi xulosasida to‘rtta sharhni sanab o‘tadi:

- 1) Abu Bakr Kalabodiyning o‘ziniki Husn at-Tasarruf;
- 2) Abdulloh ibn Muhammad Ansoriy Haravi (481/1088);
- 3) Alouddin Ali ibn Ismoil Qonaviy (729/1329);
- 4) Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh Mustamliy Buxoriy (973-1043).

“Husnu-Ta’arruf” nisbatini Abu Bakr Kalabodiy o‘ziga berishda xato qildi, chunki bu Qonaviyning sharhi nomidir. Bu borada Hoji Xalifa boshqa o‘rinda e’tirof etadi. Ehtimol xato aslida Abu Bakr Kalabodiyning o‘zi ham ba’zi o‘rinlarda iqtibos keltirgan tushunishda mushkullik tug‘diruvchi gap va satrlarni sharhlaganidan kelib chiqqan. Ansoriyning sharhi yo‘qolgan, shu sabab noma’lumligicha qoldi. Qonaviyning sharhidan bir necha qo‘lyozmalar saqlanib qolgan, aniqrog‘i Venada, kechki ammo yaxshi saqlangan nusxasi, va ayni shu parchalardan Ali ibn Ahmad Manufi Berlinda saqlanadigan yagona nusxani tayyorlagan. 710/1310-yildan avval yozilgan Mustamliyning sharhi ham huddi shunday saqlanib qolgan bo‘lib u forscha, Abu Bakr Kalabodiyning asl matnidan keyin forscha tarjima bilan yozilgan⁹.

⁷Djon Artur Arberri (12-may 1905, Portsmut Angliya Gempshir grafligi – 2 oktabr 1969, Kembrijd) nufuzli britaniyalik sharshunos. Sermahsul arab, fors tili va Islomiy tadqiqotlar olimi. U Portsmut Grammatika Maktabi va Pempbrouk Kolleji, Kembrijda tahsil olgan. Uning ingliz tiliga Qur‘onning tarjimasi, The Koran Interpreted, g‘ayrimusulmon olim tomonidan yozilgan eng mashhur tarjima bo‘lib, akademik doirada keng e’tirof qozongan. Avvalroq, Misrdagi Qohira Universitetining Mumtoz adabiyotlar bo‘limi raisi, Arberri vataniga qaytgach Hindiston Ofisining Kutubxonasida assistent kutubxonachi bo‘lib ishladi. Urush davrida Liverpoolda pochta-nazoratida xizmat qildi, sal o‘tmay London Universitetining Senati Uyida joylashgan Axborot Vazirligiga stajirovkaga yuborildi. 1944-1947 yillarda Alberri London Universitetidagi Sharqshunoslik va Afrika Tadqiqotlari maktabining fors tillari kafedrasiga boshliq etib tayinlandi. Keyinchalik Kembrijd Universitetida unga Sir Tomas Adamning Arab tili Professori unvoni berildi, undan tashqari 1947-yili o‘zining Kembrijdagi Pembrouk Kollejida 1969-yilga qadar faxriy ustoz bo‘lib qoldi. U Buyuk Britaniya, Kembrijdagi Eseshn Perish qabristoniga rafiqasi (kelib chiqishi Ruminiyalik) Sarina Simon Alberti (1900-1973) bilan dafn etilgan. U bilan ilk bor Qohirada uchrashib keyinchalik 1932-yili Kembrijda turmush qurgan. Qolaversa, Alberti Rumiyning ijodini g‘arb ommasiga o‘zining saralangan tarjimalari orqali tanishtirgani va o‘rta asr Andalus arab she‘riyatining antologiyasini tarjima qilish bilan alohida e’tiborga molik. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Arthur_John_Arberri

⁸Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Том I, – 177 стр. Bu lug‘atdagi ma’lumotlar ham Alberrining mazkur kitobidan tarjima qilib qo‘yilgan.

⁹Arthur John Arberry. Doctrine of Sufis: Translated from the Arabic of Abu Bakr al-Kalabadhi. Cambridge, At the University press. 1935. 10-13-pgs.

A.J.Arberri "At-Ta'arruf"ga qilgan tarjima asariga nega aynan The Doctrine of Sufis deya nom qo'yganiga kitobida izoh qoldirmagan. Ehtimol bu jumboqqa, lug'at kitoblariga murojaat qilish orqali javob topilar. Arab tilidan التعرف so'zi tarjima qilinganida "tanishmoq", "tanishib chiqmoq"; "tanimoq", "bilib olmoq" degan ma'nolarni anglatadi. Ammo, A.J.Arberri "doctrine" so'zini ishlatdi. "Doctrine" Kembridj izohli lug'atida: a belief or set of beliefs, especially political or religious ones, that are taught and accepted by a particular group:

– Christian doctrine

–The president said he would not go against sound military doctrine. Tarjimasi: Biror g'oya yoki g'oyalar tizimi, ayniqsa ma'lum bir guruh tomonidan o'rganilgan va qabul qilingan siyosiy yoki diniy g'oya yoki g'oyalar tizimi.

Nasroniylik doktrinasi. Prezident aytishicha, u sog'lom aqlga muvofiq keluvchi doktrinaga qarshi chiqmas edi.

O'zbek tiliga "doktrina" so'zi: e'tiqod, ta'limot, tariqat, aqida, madrasa, mazhab degan ma'no beradi. (Arabcha-inglizcha Maoniy lug'ati).

Arabcha, التعرف esa ingliz tilida: ascertain; get to know; identify; know; realize; recognize; seek to ascertain; try to know kabi so'zlar bilan tarjima qilinishi mumkin. Ammo, yakka holda yuqoridagi so'zlar التعرفning ma'lum bir jihatigina yoritib, uning to'liq ma'nosini qamray olmaydi.

Balki shu sabab, o'z sohasining ilg'or vakili bo'lgan Artur Djon Arberri kitob nomini, "e'tiqod", "ta'limot", "tariqat", "aqida", "madrasa", "mazhab" ma'nolarini beruvchi "doctrune" so'zini ishlatishni ma'qul topgan, va quruq so'zma-so'z tarjimadan ko'ra mohiyatga etibor qaratishni tanlagan. Qolaversa doctrine so'zi kitobning asl nomidagi "mazhab" ma'nosini ham anglatadi, bu ham bizga Arberri kitob nomini tarjima qilishda naqadar muvaffaq bo'lganini anglashga yordam beradi.

Zero kitob nomini o'zbek tiliga "Tasavvuf ahlining mazhabini anglash" deb tarjima qilsa ham bo'ladi. Inglizcha nomni esa The Doctrine of the Sufis – "Tasavvuf ahlining ta'limoti, mazhabi(ni anglash – tarjimon)" tarzida ma'no berish mumkin.

Artur Jon Arberri At-Ta'arrufga qilgan The Doctine of the Sufis¹⁰ nomli ingliz tilidagi tarjimasi muqaddimasida Kalobodiyning shuhrati At-Ta'arruf ustiga bino bo'lgan deydi. Ushbu asar ta'lif etilishi ko'p o'tmay tasavvuf bo'yicha qimmatli asar sifatida qabul qilindi va unga ko'p olimlar tomonidan sharhlar bitildi.

¹⁰Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Том I, – 177 стр. Bu lug'atdagi ma'lumotlar ham Alberrining mazkur kitobidan tarjima qilib qo'yilgan.

Abu Bakr Kalobodiy arab tilini juda mukammal bilgan. Shu ma’noda uning arab tili gramatikasidagi old qo‘shimchalardan foydalanib Haqning yagonaligini ifodalovchi qarashlari diqqatga sazovor:

U “an¹¹(عن)ga muvofiq emas, Unga “ila” (إلى)¹² yopishmaydi, “Fi” (في)¹³ Unga mos kelmaydi. “Iz” (إذ)¹⁴ Uni to‘xtatolmaydi. “In” (إن)¹⁵ U bilan maslahatlasholmaydi. “Favqa” (فوق)¹⁶ Unga soya sololmaydi, “Tahta” (تحت)¹⁷ Uni ko‘tarolmaydi, “Haza” (هذا)¹⁸ Unga muqobil bo‘laolmaydi, “Inda” (عند)¹⁹ U bilan raqobatlasha olmaydi. “Xalfa” (خلف)²⁰ Uni ololmaydi, “Amama” (أمام)²¹ Uni chegaralay olmaydi, “Qabla” (قبل)²² Uni zohir qilolmaydi, “Ba‘da” (بعد)²³ Uni foniy qilolmaydi, “Kull” (كل)²⁴ Uni jamlay olmaydi, “Kana” (كان)²⁵ uni vujudga keltira olmaydi, “Laysa” (ليس)²⁶ Uni yo‘qotolmaydi.

Uni maxfiylik to‘sa olmaydi. Barcha hodisot (yangidan bor qilingan narsalar)ni Uning qadimligi, yo‘qlikni Uning borligi, g‘oyani Uning azaliyati taqdim qildi. Agar Uni “qachon” desang, U vaqtni o‘zi yaratgan. Agar Uni “ilgari” desang, “ilgari” Undan keyin yaratilgan. Agar uni “U” desang, “u” harfini va tovushini ham Uning o‘zi yaratgan. Agar Uni “qanday” desang, Uning zotining qandayligi har qanday vasfdan hijoblangan, ya’ni Uni tavsiflab bo‘lmaydi. Agar Uni “qaerda” desang, makonni ham

¹¹ ‘an – old ko‘makchi, o‘zbek tilida ajratish, bo‘lish ma’nolarini anglatadi. Bu erda Alloh bo‘laklardan iborat emasligi aytilmoqda.

¹² Ila – old ko‘makchi, o‘zbek tiliga “ga” ya’ni jo‘natish kelishigi qo‘shimchasini ifodalaydi. Bu erda Allohning intihosi, nihoyasi yo‘qligiga ishora qilinmoqda.

¹³ Fi – arab tilida makonni anglatuvchi olmosh. Bu erda Allohning makondan tashqarida ekani nazarda tutilgan.

¹⁴ Iz – arab tilida zamonni anglatuvchi olmosh. Bu erda Allohning zamondan tashqari ekani aytilmoqda.

¹⁵ In – o‘zbek tilida “agar”, arab tilida shubha, gumon ma’nolarini ifodalaydi. Bu erda Alloh har qanday shubha, gumondan xoli ekani nazarda tutilgan.

¹⁶ Favqa – o‘zbek tilida “ust”, “tepa” ma’nosini anglatadi. Bu erda Allohdan yuqori narsa yo‘qligi aytilmoqda.

¹⁷ Taxta – o‘zbek tilida “ost”, “tag” ma’nosini anglatadi. Bu erda Allohni biror narsa ko‘tarib turmasligi, U biror narsa ustiga turmasligi sifatlanmoqda.

¹⁸ Hiza – o‘zbek tilida “qarshi”, “muqobil” ma’nosini ifodalaydi.

¹⁹ Inda – o‘zbek tilida “huzurida”, “oldida”, “yaqinida”, “vaqtida”, kabi ma’nolarni anglatadi. Bundan tashqari “qarshilik ko‘rsatish” ma’nosini ham ifodalaydi. Bu erda Allohga raqobat qila oladigan narsalarning mavjud emasligi aytilmoqda.

²⁰ Xalfa – o‘zbek tilida “orqa tomon”, ma’nosini ifodalaydi. Bu erda Allohning orqasi bo‘lmasligi aytilmoqda.

²¹ Amama – o‘zbek tilida “Old tomon” ma’nosini ifodalaydi. Bu erda Allohda old tomon yo‘qligi aytilmoqda.

²² Qabla – o‘zbek tilida “ilgari” ma’nosini anglatadi. Bu erda Allohning ilgari bo‘lgani, “ilgari” so‘zi ham ifodalab, tushuntirib berolmasligi aytilmoqda.

²³ Ba‘da – “keyin” ma’nosini anglatadi. Bu erda Allohni keyin ham bo‘lishi “keyin” so‘zi tushuntirib berolmasligi ta’kidlanmoqda.

²⁴ Kull – “barcha”, “hamma” ma’nolarini beradi. Bu erda mazkur so‘z bilan Allohning zotini bandalar tushuna olmasligi nazarda tutilmoqda.

²⁵ Kana – “bo‘lmoq” fe’li. Allohni bor bo‘lgani va bo‘lishligini “bo‘lmoq” fe’li ifodalay olmasligi aytilmoqda.

²⁶ Laysa – “emas” fe’li. Yo‘qlik ma’nosini anglatadi. Bu bilan Alloh mutlaqo yo‘q bo‘lmasligi, doimo mavjudligi ifodalanganmoqda.

Uning vujudi taqdim qilgan. Agar U nima? desang, barcha nimalarni Uning mohiyati bayon qilib bergan. Bir vaqtning o‘zida ikki xil sifatda jamlanmaydi va shu ikki xil sifat bilan ham zid kelmaydi. U o‘z huzurida Botindir. O‘z pardasi ichida Zohirdir. Uning zohirligi botin, botinligi zohir, yaqinligi uzoq, uzoqligi yaqindir. Ana shu sifatlar bilan xalq (yaratilgan) qilinganlarning Unga o‘xshashligi mutlaqo man qilingan.

Uning fe’li (ishi) bajarishlik bilan emas, Uning tushunishi muloqot bilan emas, Uning hidoyati imo bilan emas. Himmatlar U bilan bellasha olmaydi, fikrlar Unga aralasha olmaydi. Uning zotiga takyif (o‘zgarish) yo‘q, Uning fe’liga taklif yo‘q.

Uning sifatleri o‘zgarimas (chunki o‘zgarish yaratilganlarga xos), Uning ismlari almashmas, U azaliy shunday edi va shundayligicha qoladi. U avvaldir, oxirdir, zohirdir, botindir va U barcha narsani bilguvchidir, Unga o‘xshash biror narsa yo‘q, U o‘ta eshituvchi va o‘ta ko‘rguvchidir.

XULOSA

Abu Bakr Kalobodiy nazarida tavhid ilohiy nur sari olib boruvchi ilmdir, ya’ni Haqning yakka-yu, yagona vujud deb bilmoq va shu birlikka intilishdir.

Abu Bakr Kalobodiy Haqning birligini (tavhidni) tasdiqlovchi to‘rtta uslubiy prinsiplarni ilgari surgan:

1. Haqni yaratilganlar anglay olishidan poklash va sifatlar o‘rtasidagi tenglikni tark etish.

2. Haqqa nisbatan sabab qo‘llamaslik, ya’ni Haq sababga ega emas. Chunki sababga ega narsa oqibatdir. Sabab esa oqibat yo‘qolishi bilan yo‘qoladi. Agar sabab abadiy bo‘lsa, oqibat ham abadiy bo‘lishi kerak.

3. Haqni farqlovchi va xayol qiluvchi deb o‘ylamaslik, chunki farqlash yaxshi va yomonni ajratishga zararni bartaraf qilib, foydaga erishishga muhtoj bo‘lganlar sifatidir.

4. Xaqqa nisbatan o‘xshashlikni ikki ma’noda qo‘llamaslik birinchidan, Haq bandalar qiyosiga muhtoj emas, Haq yagona uning o‘xshashi yo‘q. Ikkinchidan, Haq o‘xshashiga muhtoj emas, chunki ma’lumni noma’lum bilan taqqoslash mumkin emas.²⁷

Yuqoridagi “at-Ta’arruf”dan keltirilgan fikrlarga e’tibor qaratilsa, Abu Bakr Kalobodiyning nafaqat tasavvuf ilmini chuqur idrok qila olishi balki, uning kalom ilmi

²⁷ Абу Бакр Калободий Ат-Таъарруф.Тарж. Отақул Мавлонқул ўғ‘ли ва Мавлуда Отақул қизи. Тошкент. G‘.G‘улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002 – Б.114.

masallaridagi salohiyatini ham ko‘rish mumkin. Shu nuqtai nazardan uning ushbu asarini qomusiy asarlar sirasiga kiritish mumkin.

References

1. Улрих Рудолф. Ал-Мотурудий ва Самарканд суннийлик илоҳиёт мактаби. Тошкент, 2002. – Б. 121.
2. Абу Бакр Калободий Ат-таъарруф ли-мазҳаби аҳли-т-тасаввуф. Аҳмад Шамсиддин. Байрут. 1992.
3. Абу Бакр Калободий Ат-таъарруф ли-мазҳаби аҳли-т-тасаввуф. Қайта нашр. Аҳмад Шамсиддин. Байрут. 1992. – Б. 21.
4. Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Том I, – 177 стр. Bu lug‘atdagi ma’lumotlar ham Alberrining mazkur kitobidan tarjima qilib qo‘yilgan.
5. Arthur John Arberry. Doctrine of Sufis: Translated from the Arabic of Abu Bakr al-Kalabadhi. Cambridge, At the University press. 1935. 10-13-pgs.
6. Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь. Под редакцией С.М.Прозорова. Том I, – 177 стр. Bu lug‘atdagi ma’lumotlar ham Alberrining mazkur kitobidan tarjima qilib qo‘yilgan.
7. Абу Бакр Калободий Ат-Таъарруф. Тарж. Отақул Мавлонқул ўғ‘ли ва Мавлуда Отақул қизи. Тошкент. G‘.G‘улом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002 – Б.114.

**Research Science and
Innovation House**

HISOR DAVLAT QO'RIQXONASINING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Pardaboyev Soxib Begali o'g'li

JDPU Sirtqi bo'lim, Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta'lim kafedrası o'qituvchisi. e-mail. soxibpardaboyev1@gmail.com

Tursunqulov G'iyos Shermat o'g'li

JDPU Sirtqi bo'lim, “Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta'lim kafedrası” biologiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hisor davlat qo'riqxonasining ahamiyati, jumladan, hayvon va o'simlik hayotidagi o'rni. Hisor davlat qo'riqxonasining joylashgan o'rni ilmiy o'rganilishi.

Kalit so'zlar: Hisor, Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlari hududida o'simlik, qo'riqxonasi, yaylov, sfagnum va funariya.

Kirish

O'zbekistonning botanik-geografik jihatdan rayonlashtirishda Janubi-G'arbiy Hisor okrugi Qashqadaryo, Boysun, Tarqapchig'ay, Ko'xitang va Surxon-Sherobod botanik-geografik rayonlariga ajratildi.

Hisor davlat qo'riqxonasining joylashgan o'rni. Hisor davlat qo'riqxonasi O'zbekistonning janubiy-sharqiy qismida, ma'muriy jihatdan Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlari hududida, botanika-geografik rayonlar kesimi jihatidan Tog'li O'rta Osiyo viloyati (provinsiyasi): G'arbiy Hisor tumani (okrugi) da (tumanlar: I-6-a Qashqadaryo, I-6-b Tarkapchig'ay) joylashgan. Hisor tog' tizmasining g'arbiy yonbag'irlarida, dengiz satxidan 1750 m dan 4366 m gacha balandlikda joylashgan.

Janubi-g'arbiy Hisorning botanik-geografik o'rni borasidagi ilk tadqiqotlar A.V. Prozorovskiy va V.P. Maleevlarga [43; 45-50-b.] tegishli. Ularning “Geobotanicheskoe rayonirovaniye SSSR” nomli asarida Janubi-g'arbiy Hisor Janubi-Turkiston provintsiyasining Hisor-Darvaz kichik provintsiyasi tarkibiga kiritilgan. Bu hudud mustaqil fitogeografik birlik sifatida birinchilardan bo'lib Ye.P.Korovin ishlarida qayd etilgan. Olim 1962 yilda Hisorning janubi-g'arbiy qismini Janubi-Turkiston

provintsiyasi, Ko'xiston okrugining G'arbiy-Hisor rayoni tarzida keltiradi va o'z navbatida uning tarkibida Ko'hitang, Qashqadaryo va Boysun tabiiy hududiy birliklariga ajratgan. Keyinchalik, L.N.Babushkin va N.A.Kogan [43; 45-51-b.]. Janubi-G'arbiy Hisorni geomorfologiyasi, o'simliklar qoplami va iqlim sharoitiga ko'ra Surxondaryo va Qashqadaryo okruglariga bo'lishgan. Surxondaryo viloyati, jumladan Boysun tog'ining geografik tuzilish to'g'risida Sh.E.Ergashev tomonidan ma'lumotlar keltirilgan [87; 155-b.].

Qashqadaryo viloyatida 2 ta Kitob (3938 ga) va Hisor (80 986 ga) davlat qo'riqxonalari mavjud bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasida Ia toifadagi eng katta muhofaza etiladigan tabiiy hudud hisoblanadi. Hisor qo'riqxonasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarshli bo'lib hisoblanadi.

Hisor qo'riqxonasi hududi Hisor tizmasining shimoliy yon bag'rida, Qashqadaryoning uchta yirik irmog'i — Oqsuv, Tanxazdaryo va Qizildaryoning yuqori oqimida joylashgan bo'lib, dengiz sathidan 1750 m dan 4349 m gacha balandliklarni egallaydi.


Yuqori keltirilgan ma'lumotlar Hisor davlat qo'riqxonasi florasiga ham tegishli. Hisor davlat qo'riqxonasi Qashqadaryo botanik-geografik rayoni hududiga to'g'ri kelib, ma'muriy jihatdan Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlari hududiga to'g'ri keladi (4.1-rasm). Hududi dengiz sathidan 1750 metrdan 4366 metrgacha bo'lgan balandliklarga to'g'ri keladi. Janubiy-sharqda Surxondaryo viloyati, sharqda Tojikiston respublikasi bilan chegaradosh [44; 208-b.]. Uning butun hududi yagona massiv sifatida sharqdan g'arbgacha 37 kilometr, shimoldan janubga 90 kilometrga cho'zilgan. Cho'qqilarining balandligi 2500 metrdan 4421 metrgacha. Jumladan, Xazrati Sulton tog'i 4030 metr, Xo'jaqirshavor 4303 metr, To'rtqo'ylik 4366 metr, Bibi-O'lmas 4349 metr. O'zbekistonning eng baland nuqtasi ham qo'riqxonaning To'rtqo'ylik tog'idagi, dengiz sathidan 4421 metr balandlikda joylashgan nomsiz cho'qqidir. Tog' daryo va soylari chuqur daralar (konyonlar) hosil qiladi.

Qo'riqxonaga janubiy-sharqda Surxondaryo viloyati, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Hisor davlat qo'riqxonasi 1983 yilda Qashqadaryo viloyatidagi ikki mustaqil Miroqi va Qizilsuv qo'riqxonalarini birlashtirish natijasida O'zbekiston Ministrlar Sovetining 09.09.1983 y. № 521 sonli qaroriga asosan tashkil etilgan.

Umumiy yer maydoni 80986,1 ga. Shundan, 2000 gektar ekoturizm uchun ajratilgan qo'riqlanma zona hisoblanadi. Qo'riqxonaga 4 ta bo'limga bulingan:

- G‘elon bo‘limi yer maydoni - 18838,1 ga.
 - Miraki bo‘limi, yer maydoni - 11821,0 ga.
 - Tanxozdaryo bo‘limi yer maydoni - 20233,0 ga.
 - Qizilsuv bo‘limiyer maydoni - 30094,0 ga.
- Qo‘riqxonahududi 17 ta sarxad, 54 ta aylanish bulakchasi (kvartallardan) iborat.



Tabiiy sharoiti

Hisor davlat qo‘riqxonasi Pomir-Oloy tog‘ tizimiga kiradigan Hisor tizmasining shimoliy-g‘arbiy kismida joylashgan.

Uning butun hududi yagona massiv sifatida sharqdan g‘arbga 37 km, shimoldan janubga 90 km ga cho‘zilgan.

Tog‘ yotqiziqlari ichida paleozoy jinslari ko‘p uchraydi.

Cho‘qqilarining balandligi 2500 metrdan 4421 metrgacha. Jumladan, Xazrati Sulton tog‘i - 4266 m, Xo‘ja-kirshavor - 4303 m, To‘rtqo‘ylik – 4366 m, Bibi-O‘lmas tog‘i – 4349 m.

O‘zbekistonning eng baland nuqtasi ham qo‘riqxonaning To‘rtqo‘ylik tog‘idagi dengiz sathidan 4421 metr balandlikda joylashgan nomsiz cho‘qqidir. Qo‘riqxonahududida mezazoy va kaynazoy davri yotqiziqlarida karst jarayonlari keng tarkalgan va o‘ralar, daralar, tokcha va g‘orlar ko‘plab uchraydi. Ushbu tog‘ daryolari va soylari chuqur daralarni (kononlar) hosil qiladi.

O‘zbekistonning eng baland nuqtasi ham Hisor davlat qo‘riqxonasi hududida balandligi 4500 metrgacha bo‘lgan cho‘qqilar: Hazrati Sulton, Xo‘ja qirshivor,

To‘rtqo‘ylik, Bibi O‘lmas, Nomsiz cho‘qqilari joylashgan bo‘lib, ular Surxondaryodagi Xo‘japirpir ota, Xo‘japiryak hamda Osmon talash cho‘qqilari bilan yonma-yon qad ko‘targan, ularning soni jami yettita. Mazkur tog‘ cho‘qqilarining etagida turgan odam cho‘qqiga yaqin bo‘lgan boshqa ikki yoki uchta cho‘qqini albatta ko‘ra oladi. Shuning uchun ularni «etti aka-uka», deyishadi. Mamlakatimizning eng baland cho‘qqisi – Nomsiz cho‘qqi. Bu cho‘qqiga hozirgi kungacha ham hech kim chiqolmagan. Shuning uchun unga hozirgi kungacha nom qo‘yilmagan. Uning balandligi dengiz sathidan 4421 metrni tashkil qiladi. Nomsiz cho‘qqi Hisor davlat qo‘riqxonasining G‘ilon bo‘limida joylashgan. Abadiy muzliklar mavjud bo‘lgan ushbu cho‘qqilardan To‘palangdaryo va Oqsuv daryolari boshlanadi. Bu yerda ancha yirik Botirboy muzligi joylashgan, uning maydoni 1600 gektar. Oqsoy daryosining yuqori irmog‘i va uzunligi 9-10 km bo‘lgan Xoliqdod soyi Botirboy muzligidan boshlanadi.



**Research Science and
Innovation House**

**Buyrak tosh kasalligi : sabablari, belgilari, tashxisi, va zamonaviy davolash
usullari**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti

Kenjayev Yodgor Mamatqulovich

Email - yodgortmatb@gmail.com

Sultonova Dilfuza

Email - sobirjonovnadilfuza120@gmail.com

Annotatsiya

Buyrak toshlari (nefrolitiaz) buyraklarda hosil bo'ladigan qattiq mineral va tuz birikmalaridir. Ular siydik yo'llarida harakatlanayotganda kuchli og'riq va noqulaylikka sabab bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada buyrak toshlarining turlari, sabablari, belgilari, tashxislash usullari, davolash yo'llari va oldini olish choralari batafsil yoritiladi.

Kalit so'zlar

Buyrak toshlari, nefrolitiaz, siydik-tosh kasalligi, bel og'rig'i, siydikdagi qon, toshlarni davolash, oldini olish.

Buyrak Toshlariga Umumiy Tushuncha

Buyrak toshlari — bu buyraklarda hosil bo'ladigan qattiq, kristallik tuzilmalar bo'lib, ular siydik yo'llari orqali harakatlanayotganda og'riq va boshqa noqulayliklarga olib kelishi mumkin. Toshlar turli o'lcham va shakllarda bo'lib, ba'zilar siydik bilan o'z-o'zidan chiqib ketsa, boshqalari tibbiy aralashuvni talab qiladi.

Toshlarning Turlari

Buyrak toshlari tarkibiga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

Kaltsiy toshlari: Eng keng tarqalgan tur bo'lib, odatda kaltsiy oksalatdan tashkil topadi.

Siydik kislotasi toshlari: Suvsizlanish yoki yuqori proteinli parhez natijasida hosil bo'lishi mumkin.

Struvit toshlari: Siydik yo'llari infeksiyalari oqibatida shakllanadi va tez o'sishi mumkin.

Sistin toshlari: Irsiy kasallik bo'lgan sistinuriya natijasida paydo bo'ladi.

Sabablari va Xavf Omillari

Buyrak toshlarining paydo bo'lishiga quyidagi omillar sabab bo'lishi mumkin:

Suvsizlanish: Yetarli miqdorda suv ichmaslik siydikning konsentratsiyalanishiga olib keladi, bu esa toshlarning hosil bo'lish xavfini oshiradi.

Parhez: Oqsil, tuz va shakar miqdori yuqori bo'lgan oziq-ovqatlarni iste'mol qilish toshlarning shakllanishiga yordam berishi mumkin.

Irsiy moyillik: Oilaviy anamnezda buyrak toshlari bo'lsa, kasallik xavfi ortadi.

Tibbiy holatlar: Qandli diabet, giperparatiroidizm va surunkali diareya kabi kasalliklar buyrak toshlari xavfini oshirishi mumkin.

Belgilari

Buyrak toshlari quyidagi alomatlar bilan namoyon bo'lishi mumkin:

Bel va qorin sohasidagi kuchli og'riq: Tosh siydik yo'llari bo'ylab harakatlanayotganda og'riq paydo bo'ladi.

Siydikda qon: Siydikning pushti, qizil yoki jigarrang tus olishi.

Ko'ngil aynishi va qayt qilish: Og'riq bilan birga kelishi mumkin.

Siydik chiqarishda qiyinchiliklar: Tez-tez siyish istagi, siydikning loyqalanishi yoki yomon hidli bo'lishi.

Tashxislash

Buyrak toshlarini aniqlash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

Tasviriy tekshiruvlar: Kompyuter tomografiyasi (KT), ultratovush yoki rentgen yordamida toshlarning joylashuvi va o'lchami aniqlanadi.

Laborator tahlillar: Qon va siydik tahlillari orqali toshlarning tarkibi va paydo bo'lish sabablari o'rganiladi.

Davolash Usullari

Davolash usuli toshlarning o'lchami, joylashuvi va alomatlarining og'irligiga bog'liq:

Kichik toshlar: Ko'p suyuqlik ichish va og'riq qoldiruvchi dori vositalari yordamida toshlarning tabiiy yo'l bilan chiqishi ta'minlanadi.

Katta toshlar: Tibbiy aralashuv talab etiladi, masalan:

Ekstrakorporal zarba to'lqini litotripsiyasi (ESWL): Toshlarini mayda bo'laklarga ajratish uchun tovush to'lqinlaridan foydalaniladi.

Ureteroskopiya: Siydik yo'liga maxsus asbob kiritilib, toshlar olib tashlanadi.

Perkutan nefrolitotomiya: Katta toshlarni olib tashlash uchun teri orqali buyrakka kirish amalga oshiriladi.

Oldini olish

Buyrak toshlarining oldini olish uchun quyidagi choralarga rioya qilish tavsiya etiladi:

Yetarli miqdorda suyuqlik iste'mol qilish: Kuniga kamida 8-10 stakan suv ichish.

Muvozanatli parhez

Xulosa:

Buyrak tosh kasalligi – buyraklarda mineral va tuz birikmalaridan hosil bo'ladigan qattiq tuzilmalardir. Ushbu kasallik ko'pincha og'riq, siydikdagi qon, siyishdagi noqulaylik va boshqa alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Buyrak toshlari turli omillar, jumladan, suvsizlanish, noto'g'ri ovqatlanish, irsiy moyillik va ayrim tibbiy holatlar tufayli shakllanadi. Toshlarning tarkibiga qarab ularning bir necha turlari mavjud bo'lib, har bir tur o'ziga xos sabablarga ega. Kichik o'lchamdagi toshlar tabiiy ravishda chiqib ketishi mumkin, lekin katta yoki murakkab toshlar tibbiy aralashuvni talab qiladi. Zamonaviy tibbiyotda buyrak toshlarini davolash uchun turli usullar, jumladan, dori-darmonlar, litotripsiya, endoskopik va jarrohlik usullari qo'llaniladi.

Kasallikning oldini olish uchun yetarli miqdorda suv ichish, muvozanatli ovqatlanish, sho'r va yog'li mahsulotlarni cheklash tavsiya etiladi. Shuningdek, muntazam tibbiy ko'riklardan o'tish va shifokor maslahatlariga rioya qilish buyrak toshlarining shakllanish xavfini kamaytiradi. Shunday qilib, buyrak toshlari jiddiy noqulaylik tug'diradigan kasallik bo'lishiga qaramay, uni erta tashxislash va to'g'ri davolash orqali asoratlarning oldini olish mumkin. Zamonaviy tibbiy texnologiyalar buyrak toshlarini samarali davolash va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://cyberleninka.ru/article/n/buyrak-tosh-kasalligini-aniqlash-va-davolash-usullari?utm_source=chatgpt.com
2. https://gmed.uz/uz/item-buyrakdagi-toshlar-sabablari-belgilari-va-tashxisi-toshkentda?utm_source=chatgpt.com
3. <https://ghealth121.com/treatments/kidney-stones/?lang=uz>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buyrak_tosh_kasalligi
5. <https://med24.uz/uz/bolezn/kamni-v-pochkakh>
6. <https://www.iloencyclopaedia.org/uz/part-i-47946/renal-urinary-system-56690>



Research Science and
Innovation House

**Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishning qadriyatli,
tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari**

Ravshanova Gulnoza Asqar qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti O'qituvchi

Baratova Mashxo'ra Qahramon qizi
Pedagogika yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qadriyatli, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar tahlil qilinadi. Kreativlik, jamiyatning zamonaviy talablari va ta'lim tizimining o'zgaruvchan dinamikasiga javoban, ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. O'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish, nafaqat individual pedagogik yondashuvni, balki o'quvchilarga zamonaviy va innovatsion usullarni o'rgatishni ham talab qiladi. Ushbu tadqiqotda o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun samarali tashkil etilgan ta'lim muhitining, o'qituvchining shaxsiy va professional qadriyatlarining o'rni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: kreativ salohiyat, o'qituvchi, ta'lim jarayoni, pedagogik shart-sharoitlar, qadriyatlar, tashkiliy shart-sharoitlar, innovatsiya, pedagogik metodlar.

Annotatsiya: В данной диссертации анализируются ценностные, организационные и педагогические условия, необходимые для развития креативного потенциала будущих учителей. Креативность становится неотъемлемой частью образовательного процесса в ответ на современные требования общества и изменяющуюся динамику образовательной системы. Развитие креативного потенциала у учителей требует не только индивидуального педагогического подхода, но и обучения учащихся современным и инновационным методам. В исследовании рассматривается роль эффективно организованной образовательной среды, а также личных и профессиональных ценностей учителя в развитии креативного потенциала.

Ключевые слова: креативный потенциал, учитель, образовательный процесс, педагогические условия, ценности, организационные условия, инновации, педагогические методы.

Annotation: This thesis analyzes the value-based, organizational, and pedagogical conditions necessary for developing the creative potential of future teachers. Creativity is becoming an integral part of the educational process in response to the modern demands of society and the changing dynamics of the education system. Developing the creative potential of teachers requires not only an individual pedagogical approach but also teaching students modern and innovative methods. This study examines the role of an effectively organized educational environment and the teacher's personal and professional values in fostering creative potential.

Keywords: creative potential, teacher, educational process, pedagogical conditions, values, organizational conditions, innovation, pedagogical methods.

Kirish: Zamonaviy ta'lim tizimi o'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sharoitlar ta'sirida rivojlanmoqda. Shuning uchun o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Kreativlik nafaqat ta'lim jarayonini jonlantirish, balki o'quvchilarga innovatsion fikrlashni o'rgatish, jamiyatning kelajakdagi ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim sifatini oshirishda ham katta ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini shakllantirish, nafaqat o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarni taqdim etish, balki ularning ijodiy yondashuvini rivojlantirish, muammolarni hal qilishdagi qobiliyatlarini kuchaytirish uchun ham zarur. Shu sababli, o'qituvchilarni kreativlikka yo'naltirish uchun samarali pedagogik metodlar, tashkiliy shart-sharoitlar va pedagogik qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi ta'lim tizimi o'qituvchilardan faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g'oyalar va innovatsiyalarni qabul qilish va amalga oshirishni o'rgatishni ham talab qiladi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish, ularning pedagogik malakalarini oshirish, ta'limda yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan juda dolzarb masaladir.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishning qadriyatli, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari mavzusi ta'lim sohasida chuqur ilmiy ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogika kreativlikni o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishida muhim omil sifatida ko'radi. Kreativ o'qituvchilar ta'lim jarayonini yangilashga, o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlariga mos keladigan ta'limni tashkil etishga qodir.

Ilmiy nuqtai nazardan, bu tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ salohiyatni rivojlantirishda samarali pedagogik metodlar, qadriyatlar va tashkiliy shart-sharoitlarning o‘rnini aniqlashga qaratilgan. Bu mavzu ta'limda innovatsion yondashuvlar va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik malakalarini takomillashtirishda muhim yo‘nalishlarni belgilaydi.

Kreativlikni rivojlantirish orqali, o‘qituvchilar o‘quvchilarga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni taqdim etib, ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yechimlar topish va yangi imkoniyatlarga moslashish qobiliyatlarini shakllantiradilar. Shuningdek, bu tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z shaxsiy va kasbiy qadriyatlarini shakllantirishda yordam beradi va ta'lim tizimining umumiy sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, bu mavzu ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, ta'lim tizimini rivojlantirish, o‘qituvchilarni tayyorlash va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini oshirish borasida yangi ilmiy qarashlar va uslublarni joriy qilishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ salohiyatini rivojlantirishda samarali pedagogik jarayonni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan qadriyatli, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar quyidagi asosiy komponentlardan iboratdir:

1. Qadriyatli shart-sharoitlar:

Kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqish va o‘zini o‘zi rivojlantirishga tayyorlik muhim ahamiyatga ega. Ushbu qadriyatlar o‘qituvchining shaxsiy motivatsiyasi va pedagogik ishga bo‘lgan ishtiyoqini shakllantiradi. O‘qituvchilar o‘zlarining kasbiy faoliyatida quyidagi qadriyatlarni xush ko‘rishlari kerak:

• **Innovatsion yondashuv:** Ta'lim jarayonida yangiliklarni va zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash.

• **Ijodiy fikrlash:** Ta'limda mustaqil fikr va ijodiy qarorlar qabul qilishga o‘rgatish.

• **Ochiq fikrlilik:** O‘qituvchi o‘zining ijodiy qobiliyatlarini kengaytirib, yangi fikrlar va g‘oyalarni ochiq va konstruktiv tarzda qabul qilishi zarur.

2. Tashkiliy shart-sharoitlar:

Kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarga zarur tashkiliy shart-sharoitlar yaratish muhimdir. Bu shart-sharoitlar o‘qituvchining kreativ salohiyatini

oshirish va o‘zining pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish uchun zarur imkoniyatlarni taqdim etadi:

- **Ta'lim muhitining qo‘llab-quvvatlanishi:** Kreativ pedagogik yondashuvlar uchun qulay muhit yaratish, o‘quv materiallari va didaktik vositalar bilan ta'minlash.

- **Tajribali o‘qituvchilarning rahbarligi:** Yangi pedagogik usullarni o‘rganish va o‘z faoliyatida qo‘llash uchun tajribali o‘qituvchilardan maslahat olish va o‘zaro tajriba almashish imkoniyatlari.

- **Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish:** Onlayn ta'lim platformalarini va boshqa innovatsion texnologiyalarni o‘qituvchilarni o‘qitishda keng qo‘llash.

3. Pedagogik shart-sharoitlar:

Pedagogik shart-sharoitlar o‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular ta'lim jarayonining mohiyatini va pedagogik yondashuvlarni belgilaydi:

- **Pedagogik metodlar:** Kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan interfaol, guruhli va amaliy metodlar o‘qituvchilarga yangi yondashuvlar va metodologiyalarni o‘rganishga yordam beradi.

- **Muammolarni yechish:** O‘qituvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilishga va ijodiy yechimlar topishga yo‘naltirish, bu ularning o‘z kreativ salohiyatlarini amalda qo‘llash imkonini beradi.

- **Individual yondashuv:** Har bir o‘qituvchining kreativ salohiyatini rivojlantirishda shaxsiy yondashuv muhimdir. O‘qituvchilarning o‘ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish, ularni rivojlantirishga yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan qadriyatli, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar ta'lim tizimini samarali va innovatsion tarzda rivojlantirishga yordam beradi. Bu shart-sharoitlar o‘qituvchilarni nafaqat o‘quvchilarga bilim berishda, balki ularni ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa:

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishning qadriyatli, tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari ta'lim tizimining asosiy rivojlanish yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kreativlikni rivojlantirish uchun

o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy qadriyatlarini, zamonaviy pedagogik metodlar va innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim muhitining samarali tashkil etilishi, o‘qituvchining individual yondashuvi, shuningdek, pedagogik metodlar va usullarni doimiy yangilab turish kreativ salohiyatni oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bunday shart-sharoitlar o‘qituvchilarning nafaqat o‘z bilimlarini kengaytirishga, balki o‘quvchilarga zamonaviy va ijodiy fikrlashni o‘rgatishga yordam beradi. O‘qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish o‘z navbatida, ta'lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning o‘zini ifoda etish, mustaqil fikrlash va innovatsion g‘oyalarni qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Takliflar:

1. **Kreativ pedagogik metodlarni keng joriy etish:** Bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativ fikrlashga yo‘naltiruvchi innovatsion metodlarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish zarur. Bu metodlar orasida interfaol darslar, guruhli ishlash va muammoli vazifalar muhim o‘rin tutadi.

2. **Zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga qo‘llash:** O‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalar va onlayn platformalarni pedagogik faoliyatda ishlatishga o‘rgatish, bu orqali ta'limni yanada interaktiv va kreativ qilish mumkin.

3. **O‘qituvchilarni tajriba almashish va hamkorlikka yo‘naltirish:** O‘qituvchilar o‘rtasida doimiy malaka oshirish seminarlar va treninglar tashkil etish, shuningdek, pedagogik tajriba almashish uchun maxsus platformalar yaratish zarur.

4. **Kreativlikni o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlariga kiritish:** Bo‘lajak o‘qituvchilarga kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun pedagogik ta'lim dasturlarida maxsus kurslar va treninglar qo‘shish, bu esa o‘qituvchilarning ijodiy yondashuvini shakllantiradi.

5. **Pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish:** O‘qituvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, mustahkam etika va shaxsiy motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Bu qadriyatlarni o‘qituvchilarning kundalik faoliyatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

6. **Pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish:** Ta'lim muhitini rivojlantirish, o‘qituvchilarning yaratgan innovatsion yondashuvlari uchun zarur

bo‘lgan tashkiliy va texnik resurslar bilan ta‘minlash kerak. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning professional o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratish zarur.

Xulosa: Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qo‘llash, pedagogik metodlarni yangilash, shuningdek, o‘qituvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Ta‘lim tizimini takomillashtirishda kreativ yondashuvning o‘rni katta bo‘lib, ta‘lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akhmedova, N. (2018). "Kreativlik va ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar." Toshkent: Ta'lim nashriyoti.
2. Gulyamova, D. (2020). "Pedagogik metodlar va kreativ salohiyat." Samarqand: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi.
3. Kadirova, M. (2019). "Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda kreativlikni rivojlantirish." Pedagogika va ta'lim jurnalining 3-soni, 45-49 betlar.
4. Sirojiddinov, A. (2021). "Ta'limda zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar." Tashkent: Ta'lim nashriyoti.
5. Tursunova, S. (2020). "Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy yondashuv va pedagogik metodlar." Ta'lim nazariyasi va amaliyoti, 12-son, 102-106 betlar.
6. Zayniddinova, M. (2017). "Pedagogik qadriyatlar va ularning ta'limdagi roli." Toshkent: O‘qituvchi.
7. Kohl, S. (2016). "Creative Teaching and Learning in the Modern Classroom." Journal of Educational Development, 10(2), 133-145.
8. Gardner, H. (2006). "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences." Basic Books.
9. Csikszentmihalyi, M. (1996). "Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention." HarperCollins.
10. Benson, L., & Beal, M. (2015). "Innovation and Creativity in Teaching." Journal of Educational Research, 15(4), 212-225.

RADIATSIYA NURLARIDAN ZAHARLANISH VA UNI DAVOLASH USULLARI

Termiziqtisodiyotvaservisuniversiteti
Tibbiyot fakultetitalabasi
Xolboboyeva Madina Maxmarajabqizi
Email – madinaxolboboyeva9@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada radiatsiya nurlaridan zaharlanish sabablari, uning organizmga ta'siri, davolash usullari va profilaktika choralariga keng yondashilgan. Radiatsion kasallik ionlovchi nurlarning inson hujayralariga zarar yetkazishi natijasida yuzaga keladi va qisqa hamda uzoq muddatli sog'liq muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Maqolada radiatsiyaning asosiy turlari, ta'sir darajasi, organizmga zarari va uning oqibatlarini bartaraf etish usullari batafsil bayon etilgan. Shuningdek, radiatsion zaharlanishni davolashda ishlatiladigan farmakologik vositalar, shoshilinch yordam usullari va profilaktik choralar haqida ham ma'lumot berilgan. Ushbu tadqiqot radiatsiya xavfsizligining muhimligini va uni oldini olish choralarini ta'kidlaydi.

KALIT SO'ZLAR:

Radiatsiya, ionlovchi nurlar, gamma nurlari, rentgen nurlari, radiatsion zaharlanish, yod terapiyasi, immun tizimi, qon quyish, antioksidantlar, radiatsiya himoyasi.

KIRISH

Radiatsiya zamonaviy hayotning ajralmas qismi bo'lib, tibbiyot, sanoat, energetika va harbiy sohalarda keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, ionlovchi nurlar (gamma, rentgen, alfa va beta nurlari) inson organizmiga zarar yetkazishi mumkin. Radiatsion zaharlanish yuqori dozali nurlanish ta'sirida ro'y beradi va turli darajadagi kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolada radiatsion nurlanish turlari, zaharlanish sabablari, organizmga ta'siri, belgilari, davolash usullari va profilaktika choralarini haqida keng ma'lumot beriladi.

RADIATSIYA NURLARI VA ULARNING TURLARI

1. Ionlovchi va noionlovchi nurlar

Radiatsiya ikki turga bo‘linadi:

Ionlovchi nurlar – Elektronlar va molekullarni ionlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lgan kuchli energiyali nurlar (gamma, rentgen, alfa va beta nurlari, neytronlar).

Noionlovchi nurlar – Past energiyali bo‘lib, inson organizmiga nisbatan kamroq zarar yetkazadi (ultrabinafsha, infraqizil, radio va mikroto‘lqinlar).

2. Ionlovchi nurlanish turlari

Gamma nurlari – Eng kuchli ionlovchi nurlar bo‘lib, inson tanasiga oson kiradi va ichki organlarga ta‘sir qiladi.

Rentgen nurlari – Tibbiyotda diagnostika maqsadida ishlatiladi, ammo yuqori dozada zararli bo‘lishi mumkin.

Alfa nurlari – Tana to‘qimalariga chuqur kira olmaydi, lekin yutib yuborilganida xavfli.

Beta nurlari – Teri va tashqi organlarga ta‘sir qiladi, ichki nurlanishga sabab bo‘lishi mumkin.

Neytron nurlari – Yadro reaktorlarida hosil bo‘lib, tirik to‘qimalarni kuchli zararlaydi.

RADIATSIYADAN ZAHARLANISH SABABLARI

Radiatsion zaharlanish turli holatlarda yuzaga kelishi mumkin

1. Yadro avariylari – Chernobil (1986), Fukusima (2011) kabi yadro elektr stansiyalaridagi portlashlar.

2. Atom bombasi va yadroviy qurollar – Yadro sinovlari va harbiy harakatlar natijasida.

3. Sanoat va tibbiyot nurlanishi – Rentgen, radioterapiya va yadroviy texnologiyalarni noto‘g‘ri qo‘llash.

4. Tabiiy radiatsiya – Er osti gazlari (radon), kosmik nurlanish va radioaktiv minerallar

5. Texnogen chiqindilar – Yadro chiqindilari va radioaktiv moddalarning atrof-muhitga chiqishi.

RADIATSIYA NURLANISHINING INSON ORGANIZMIGA TA‘SIRI

1. Radiatsiyaning biologik ta‘siri

Radiatsiya organizmga ionlovchi ta‘sir ko‘rsatib, hujayra tuzilishini o‘zgartiradi va DNKga zarar yetkazadi. U quyidagi darajalarga bo‘linadi:

Past daraja (≤ 100 mSv) – Organizm o‘zini tiklashi mumkin, lekin uzoq muddatli xavf saqlanib qoladi.

O‘rtacha daraja (100–500 mSv) – Hujayralarning zararlanishi va immunitetning pasayishi kuzatiladi.

Yuqori daraja (>500 mSv) – Og‘ir patologiyalar, suyak iligi va ichki organlarning zararlanishi.

O‘ta yuqori daraja (>5000 mSv) – O‘lim xavfi yuqori bo‘lib, organizm to‘liq shikastlanadi.

2. Radiatsiya kasalligining belgilari

Radiatsion zaharlanish doza va ta’sir vaqtiga qarab turli bosqichlarda kechadi:

Dastlabki bosqich (bir necha soat ichida) – Ko‘ngil aynishi, qusish, bosh aylanishi, ishtahaning yo‘qolishi.

O‘tkir bosqich (1–2 hafta) – Soch to‘kilishi, immunitet pasayishi, qon ketishlar.

Kech bosqich (2–3 oy) – Ichki organlarning shikastlanishi, suyak iligi zararlanishi, o‘lim xavfi.

3. Uzoq muddatli ta’sirlar

Saraton – Ayniqsa, qon (leykemiya) va qalqonsimon bez saratoni xavfi ortadi.

Genetik o‘zgarishlar – Keyingi avlodlarda mutatsiyalar yuzaga kelishi mumkin.

Reproduktiv muammolar – Bepushtlik, homila nuqsonlari.

RADIATSIYA ZAHARLANISHINI DAVOLASH USULLARI

Radiatsion kasallikni davolashda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

1. Favqulodda choralar

Nurlanish manbasidan uzoqlashish – Radiatsiya ta’sirini minimallashtirish.

Himoya kiyimlari – Qo‘lqop, maxsus kiyim va niqoblar taqish.

Terini tozalash – Radioaktiv chang va moddalardan yuvinish.

2. Farmakologik davolash

Yod tabletkalari – Qalqonsimon bezni yadro yodi (I-131) ta’siridan himoya qilish.

Kelat hosil qiluvchi moddalar – Radioaktiv moddalarni organizmdan chiqaruvchi dorilar (Prussian Blue, DTPA). Antioksidantlar – Vitaminlar (C, E) va beta-karotin hujayralarni himoya qiladi.

3. Simptomatik davolash

Qon quyish – Gemoglobin va qizil qon hujayralarini tiklash.

Immun tizimini qo‘llab-quvvatlash – Antibiotiklar va immunomodulyatorlar.

Suyuqlik terapiyasi – Dehidratatsiyani oldini olish uchun infuzion eritmalar.

4. Radiatsiya terapiyasi natijasida yuzaga kelgan asoratlarni davolash

Kemoterapiya va jarrohlik – Radiatsiya ta’sirida yuzaga kelgan o’simtalarni davolash.

Psixologik qo’llab-quvvatlash – Radiatsiya qurbonlarining ruhiy holatini yaxshilash.

RADIATSIYADAN HIMOYA CHORALARI

1. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish – Qurilish, tibbiyot va sanoat sohalarida maxsus kiyimlar kiyish.

2. Yadro xavfsizligini ta’minlash – Atom elektr stansiyalarida qat’iy xavfsizlik choralari.

3. Radiatsiyani nazorat qilish – Geiger hisoblagichi va dozimetrlardan foydalanish.

4. Ovqat va suvni nazorat qilish – Radioaktiv moddalar bilan ifloslangan oziq-ovqat iste’molini oldini olish

XULOSA

Radiatsiya nurlaridan zaharlanish inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bu zarar organizmga tushgan nurlanish dozasiga bog’liq bo’lib, qisqa va uzoq muddatli asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Radiatsion kasallikning oldini olish uchun yadro xavfsizligi choralari ko’rilishi, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va radiatsiya monitoringi olib borilishi zarur. Shuningdek, zaharlanish holatlarida shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish, yod tabletkalaridan foydalanish va immun tizimini mustahkamlash kabi muhim choralar amalga oshirilishi lozim. Radiatsion xavflarni kamaytirish va inson salomatligini himoya qilish uchun ilmiy tadqiqotlar va xavfsizlik texnologiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hall, E. J. (2019). Radiobiology for the Radiologist. Wolters Kluwer.
2. United Nations Scientific Committee on the Effects of Atomic Radiation (UNSCEAR) Reports.
3. World Health Organization (WHO) – Radiation Protection Guidelines.
4. IAEA (International Atomic Energy Agency) – Radiation Safety Manual.

**NEYRODERMATIT KASALLIGI: ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA
KLINIK BELGILARI**

Termiz iqtisodiyot va servisi universiteti

Tibbiyot fakulteti

Boyqobilov Soatmurod Shuxratovich

Email - soatmurod_boyqobilov@tues.uz

Norboyeva Marjona Boyquvvatovna

Email – norboyevamarjona418@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada neyrodermatit kasalligining etiologiyasi, patogenezi va klinik belgilari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Neyrodermatit – surunkali qaytalanuvchi teri kasalligi bo'lib, uning rivojlanishida genetik moyillik, asab tizimi buzilishlari, allergik reaksiyalar va atrof-muhit omillari muhim rol o'ynaydi. Kasallik qichishish, qizarish, terining qalinlashishi va toshmalar bilan namoyon bo'ladi. Maqolada neyrodermatitning turlari, rivojlanish bosqichlari va uning klinik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu tadqiqot kasallikning patogenezi tushunishga va uni davolash hamda profilaktika qilish choralari bo'yicha muhim tavsiyalar berishga yordam beradi.

KALIT SO'ZLAR:

Neyrodermatit, teri kasalliklari, allergiya, immun tizimi, qichishish, ekzema, dermatit, stress, atopik dermatit, genetik moyillik.

KIRISH

Neyrodermatit – bu surunkali qaytalanuvchi teri kasalligi bo'lib, asosan nevrogen va allergik omillar ta'sirida yuzaga keladi. Kasallik terining qichishishi, qizarishi, qalinlashishi va toshmalar bilan namoyon bo'ladi. Neyrodermatit ko'proq bolalar va o'smirlarda uchrasa-da, kattalarda ham rivojlanishi mumkin. Ushbu maqolada neyrodermatitning etiologiyasi, patogenezi va klinik belgilari batafsil yoritiladi.

NEYRODERMATITNING ETIOLOGIYASI

Kasallikning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagilarga bo'linadi:

1. Genetik omillar

Ota-onada allergik kasalliklar (astma, ekzema, allergik rinit) bo'lsa, farzandda neyrodermatit rivojlanish ehtimoli yuqori bo'ladi.

Immun tizimining haddan tashqari sezgirligi irsiy omil sifatida kasallik rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

2. Asab tizimi buzilishi

Stress, depressiya va emotsional zo‘riqish kasallikning boshlanishi yoki zo‘rayishiga sabab bo‘ladi.

Vegetativ asab tizimi faoliyatining buzilishi natijasida teri sezuvchanligi oshadi va qichishish paydo bo‘ladi.

3. Allergik omillar

Ovqat mahsulotlari (tuxum, sut, yong‘oq, dengiz mahsulotlari) neyrodermatit rivojlanishini keltirib chiqarishi mumkin.

Chang, gul changi, uy hayvonlari junlari va kimyoviy moddalar ham kasallikni qo‘zg‘atishi mumkin.

4. Immun tizimi buzilishi

Neyrodermatitli bemorlarda immunoglobulin E (IgE) miqdori yuqori bo‘lib, bu organizmning allergiyaga moyilligini oshiradi.

Immunitetning noto‘g‘ri ishlashi natijasida teri yallig‘lanishi va tirnash xususiyati kuchayadi.

5. Atrof-muhit omillari

Sovuq yoki juda issiq havo sharoiti.

Kimyoviy vositalar, shampun, sovun, kosmetika va kiyim-kechak tarkibidagi sintetik materiallar.

PATOGENEZ

Neyrodermatit patogenezi quyidagi asosiy mexanizmlar bilan bog‘liq:

1. Nevrogen mexanizm – Markaziy va vegetativ asab tizimining buzilishi natijasida teri qichishi va qizishi paydo bo‘ladi.

2. Allergik mexanizm – Allergenlar organizmga tushganda immun tizimi IgE ishlab chiqaradi va mast hujayralardan gistamin ajralib chiqadi, bu esa yallig‘lanish jarayonini boshlaydi.

3. Teri to‘siq funksiyasining buzilishi – Terining lipid qatlamidagi o‘zgarishlar namlik yo‘qotilishiga olib keladi, bu esa uni sezuvchan qiladi.

4. Autoimmun reaksiyalar – Ba‘zi hollarda organizm o‘z hujayralariga nisbatan noto‘g‘ri immun reaksiya ko‘rsatishi mumkin.

KLINIK BELGILARI

1. Umumiy klinik belgilari

Qichishish – Kasallikning asosiy belgisi bo‘lib, ayniqsa kechasi kuchayadi.

Terining qizarishi (eritema) – Qichishish natijasida yuzaga keladi.

Teri qalinlashishi va quruqligi – Davomiy qichishish va tirnash natijasida terining strukturasi o‘zgaradi.

Toshmalar va qichima o‘choqlari – Ko‘pincha bo‘yin, qo‘ltiq osti, tirsak va tizza bukilmalari, qo‘l va oyoq kaftlarida kuzatiladi.

2. Neyrodermatit turlari

1. Cheklangan neyrodermatit

Tananing faqat ma‘lum bir qismlarida toshmalar bo‘ladi.

Qichishish va terining qalinlashishi aniq chegaralangan joylarda kuzatiladi.

2. Tarqoq neyrodermatit

Butun tanada qichishish va qizarish mavjud.

Ko‘pincha bolalikda boshlanadi va uzoq davom etishi mumkin.

3. Gipertrofik neyrodermatit

Ko‘proq jinsiy a‘zolar sohasida joylashib, qalinlashgan to‘qimalar hosil bo‘ladi.

4. Psoriatik shakl

Psoriazga o‘xshash teri qalinlashishi va quruqlik kuzatiladi.

3. Kasallikning bosqichlari

Boshlang‘ich bosqich – Qizarish va qichishish paydo bo‘ladi.

Faol bosqich – Terining qalinlashishi va yallig‘lanish jarayonlari kuchayadi

Surunkali bosqich – Davolash qilinmasa, terining tuzilishi buzilib, doimiy qalinlashgan o‘choqlar hosil bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rook's Textbook of Dermatology – Tony Burns, Stephen Breathnach, Neil Cox, Christopher Griffiths. Wiley-Blackwell, 2016.
2. Dermatology – Jean L. Bolognia, Joseph L. Jorizzo, Julie V. Schaffer. Elsevier, 2018.
3. Clinical Dermatology – Thomas P. Habif. Mosby, 2015.
4. Modern Approach to Neurodermatitis Treatment – Smith J., Roberts L., International Journal of Dermatology, 2020.
5. Atopic and Neurodermatitis Pathogenesis – Miller T., Skin Research Journal, 2019.
6. World Health Organization (WHO) – Guidelines on Dermatological Diseases, 2021.
7. National Eczema Association – Neurodermatitis: Causes, Symptoms, and Treatment, 2022.

Conservative Methods for Caries Treatment

Ismoilova Umiya G'ayrat qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi

umiyaismoilova2@gmail.com

Abstract: Dental caries is a widespread oral health issue affecting millions of people worldwide. Conservative treatment approaches focus on non-invasive or minimally invasive techniques to prevent, halt, or reverse the progression of caries. This article discusses various conservative treatment methods, including fluoride therapy, remineralization techniques, sealants, and dietary modifications. These methods offer effective solutions for early-stage caries and reduce the need for extensive restorative procedures.

Keywords: dental caries, conservative treatment, fluoride therapy, remineralization, sealants, minimally invasive dentistry

Introduction Dental caries is one of the most prevalent chronic diseases globally, affecting individuals of all ages. Traditional treatment often involves invasive procedures such as drilling and filling cavities. However, advances in dental research have led to the development of conservative treatment methods aimed at preserving tooth structure while preventing further decay. This article explores the primary conservative approaches for managing caries and their effectiveness.

Conservative Treatment Methods

1. Fluoride Therapy

Fluoride is a key element in the prevention and treatment of dental caries. It strengthens enamel and enhances remineralization by attracting calcium and phosphate ions to demineralized areas. Fluoride can be delivered through toothpaste, mouth rinses, fluoride varnishes, and professional fluoride treatments.

2. Remineralization Techniques

Remineralization is the process of restoring lost minerals to the enamel. Products containing calcium phosphate, hydroxyapatite, and casein phosphopeptide-amorphous calcium phosphate (CPP-ACP) have been found effective in reversing early-stage caries. These compounds help rebuild weakened enamel and reduce lesion progression.

3. Sealants

Dental sealants are thin protective coatings applied to the chewing surfaces of molars to prevent bacterial accumulation and acid attacks. Sealants are particularly beneficial for children and individuals at high risk of caries, providing a physical barrier against cavity formation.

4. Dietary Modifications

Reducing sugar intake and following a balanced diet rich in calcium and phosphorus can help prevent caries. Avoiding frequent consumption of acidic and sugary foods reduces the risk of enamel demineralization and bacterial activity.

5. Non-Invasive Therapies

Other non-invasive treatments include the use of silver diamine fluoride (SDF), which has antibacterial properties and can halt caries progression, and laser treatment, which enhances remineralization and strengthens enamel.

Conclusion Conservative treatment methods provide an effective alternative to invasive dental procedures by preventing and reversing early-stage caries. Fluoride therapy, remineralization agents, sealants, and dietary changes play a crucial role in maintaining oral health. These approaches reduce the need for extensive restorations, making dental care more accessible and preserving natural tooth structure.

References

1. Fejerskov, O., & Nyvad, B. (2015). *Dental Caries: The Disease and Its Clinical Management*. Wiley Blackwell.
2. Pitts, N. B., & Zero, D. T. (2016). "Dental Caries Prevention and Management: A Review of Current Strategies." *Journal of Dentistry*, 55, 1-10.
3. Mei, M. L., et al. (2016). "Effect of Silver Diamine Fluoride on Caries Prevention and Arrest." *Journal of Dental Research*, 95(4), 417-423.
4. Ten Cate, J. M. (2013). "Remineralization of Deep Enamel Lesions." *Journal of Clinical Dentistry*, 24, A1-A7.
5. American Dental Association. (2022). "Sealants and Their Role in Preventing Cavities." ADA Guidelines.

**PUSHTI LEKSEMASI ASSOTSIATIV MAYDONIDAGI INDIVIDUAL
ASSOTSIATSIYALAR TAHLILI**

Ra'noxon Ubaydullayeva Ahmadaliyevna
2-IDUM da ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
Farg'ona viloyati Dang'ara tumani

Annotatsiya:

Ushbu tadqiqot pushti leksemasining assotsiativ maydonidagi individual assotsiatsiyalarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi, pushti so'zi va uning variantlariga nisbatan individlarning assotsiativ bog'lanishlarini, turli til, madaniyat va psixologik kontekstlarda qanday shakllanishini o'rganishdir. Assotsiativ maydon metodologiyasini qo'llagan holda, ushbu maqola “pushti” tushunchasi bilan bog'liq assotsiatsiyalarni aniqlash va tahlil qilishni, uning emotsional, simvolik va kognitiv o'lchovlarini o'rganishni maqsad qilgan. Tadqiqot natijalari, shaxsiy tajribalar va madaniy ta'sirlarni aks ettiruvchi turli individual assotsiatsiyalarni ochib beradi va rangga oid leksemalarning tildagi va ijtimoiy qarashlardagi aqliy tasavvurini yoritadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslik va kognitiv psixologiya o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Pushti leksema, assotsiativ maydon, individual assotsiatsiyalar, tilshunoslik tahlili, kognitiv psixologiya, rang leksemalari, simvolizm, emotsional qabul, madaniy ta'sirlar.

PUSHTI: gul 97; ko'ylak 87; qalam 39; sumka 24; jemfer 22; kofta 19; ro'mol 17; kostyum 14; kurtka 11; marmelad 11; penal 11; atirgul 10; gul 9; lola 9; ruchka 8; daftar 7; shlyapa 7; tufli 6; paypoq 5; o'yinchoq 5; bantik 4; lak 4; mashina 4; pomada 4; qalam 3; sochiq 3; tufli 3; bahor 2; bluts 2; futbolka 2; lab 2; mato 2; muzqaymoq 2; paxtaqand 2; qog'oz 2; sochiq 2; taqinchoq 2; uy 2; shaftoli 2; shapka 2; baliq 1; barbi 1; binafsha 1; bulut 1; bo'yoq 1; daraxt 1; eshik 1; kamar 1; kapalak 1; kitob 1; krassofka 1; krem 1; javon 1; jamadon 1; malika 1; muqova 1; nafis 1; olma 1; olcha 1; palton

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 02. February 2025

1;paxta 1; qulupnay 1; qo‘g‘irchoq 1; qand 1; rasm 1; rubashka 1; soat 1; soyabon 1; termos 1; tort 1; uzuk 1; yostiq 1; shaftoli guli 1; sharf 1; chaqaloq 1.

(Jami assotsiatsiyalar 500 ta; turli assotsiatsiyalar 465 ta; yakka assotsiatsiyalar 35 ta; javob berilmagan holat yo‘q)

Ushbu assotsiativ maydonda quyidagi birliklar individual javob reaksiyalari sanaladi:

baliq 1; barbi 1; binafsha 1; bulut 1; bo‘yoq 1; daraxt 1; eshik 1; kamar 1; kapalak 1; kitob 1; krassofka 1; krem 1; javon 1; jomadon 1; malika 1; muqova 1; nafis 1; olma 1; olcha 1; palto 1;paxta 1; qulupnay 1; qo‘g‘irchoq 1; qand 1; rasm 1; rubashka 1; soat 1; soyabon 1; termos 1; tort 1; uzuk 1; yostiq 1; shaftoli guli 1; sharf 1; chaqaloq 1.

Berilgan assotsiatsiyalarda ayrim shaxslarning pushti rangi bo‘yicha bilim va tasavvurlari aks etgan. Javob reaksiyalarida ularning pushti rangi bilan bog‘liq quyidagi bilimlari namoyon bo‘lgan:

1) pushti rang narsa-predmetlarning rang bo‘yog‘ini aks ettiradi: *bo‘yoq, eshik, kamar, kitob, krassofka, krem, javon, jomadon, muqova, palto, qo‘g‘irchoq, rasm, rubashka, soat, soyabon, termos, uzuk, yostiq, sharf;*

2) pushti rang kishilarning kimga o‘xshashi, rang-tusini aks ettiradi: *malika, chaqaloq;*

3) pushti rang hasharot va boshqa jonzotlarning rang-tusini aks ettiradi: *kapalak, baliq;*

4) pushti rang o‘simlik, mevalarning rang bo‘yog‘ini aks ettiradi: *binafsha, daraxt, olma, olcha, paxta, qulupnay, shaftoli guli;*

5) pushti rang tabiat hodisalari rang bo‘yog‘ini aks ettiradi: *kamalak, bulut;*

6) pushti rang shirinliklar rang bo‘yog‘ini aks ettiradi: *qand, tort;*

7) pushti rangga nisbatan til egalarining munosabati aks etadi: *nafis.*

Ko‘rinadiki, individual assotsiatsiyalar ham rang ifodalovchi so‘zlarning semantik mohiyatini ochib berishda ahamiyatli. Shuningdek, individual assotsiatsiyalar yakka shaxslarga tegishli bo‘lsa-da, ular har bir rangning til egalari tomonidan qanday idrok etilishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pushti leksemasiga berilgan javob reaksiyalari har bir til egasining bu rang bo‘yicha tasavvurlari, uni qanday his qilishini namoyon qilgan. Masalan, bir sinaluvchi eshik rangida pushtini, yana bir sinaluvchi krassovkada, boshqasi bu rangni kremda idrok qilgan.

Anglashiladiki, individual assotsiatsiyalar o‘ziga xos. Javob reaksiyalari ichida pushti rangiga nisbatan hosil bo‘lgan *bulut, qulupnay, qand, chaqaloq* kabi notabiiy javob reaksiyalari ham mavjud.

References

1. Vygotskiy, L. S. (1986). *O'y va Til*. MIT Press.
2. Kosslyn, S. M., & Miller, E. A. (2013). *Psixologiya: Miya, Shaxs, Dunyo* (7-nashr). Pearson Education.
3. Köhler, W. (1929). *Gestalt Psixologiyasi*. Liveright.
4. Paivio, A. (2007). *Aql va Uning Taraqqiyoti: Ikki Kodlash Nazariyasi*. Psychology Press.
5. Aitchison, J. (2012). *So'zlar Ongda: Mental Leksema Kirish* (4-nashr). Wiley-Blackwell.
6. Gilead, M., & Liberman, N. (2019). *Inson Aqliy Kognitsiyalaridagi Assotsiativ Tarmoq*. *Kognitiv Psixologiya*, 112, 13-29.
7. Sokolov, A. V., & Zaliznyak, A. A. (2014). *Assotsiativ Tarmoqlarning Psixolingvistik Xususiyatlari*. *Rossiya Kognitiv Ilmlari Jurnal*, 4(2), 23-39.
8. Matushansky, O. (2018). *Lexikal Semantika: Kognitiv va Xoch-Madaniy Yondashuvlar*. Cambridge University Press.

Research Science and
Innovation House

OQ VA KO‘K LEKSEMALARI ASSOTSIATIV MAYDONIDA TASHQI OMILLAR ASOSIDA HOSIL BO‘LGAN INDIVIDUAL ASSOTSIATSIYALAR TAHLILI

Ra'noxon Ubaydullayeva Ahmadaliyevna

2-IDUM da ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot oq va ko‘k rangni ifodalovchi leksemalarning assotsiativ maydonida tashqi omillar asosida hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalarni tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda ranglarning emotsional, madaniy, va psixologik tasavvurlari, shuningdek, ushbu ranglarning turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday qarashlarga olib kelishi o‘rganiladi. Oq va ko‘k ranglarning individual assotsiatsiyalari, shaxsiy tajriba, madaniy meros, ijtimoiy stereotiplar va ekologik omillardan qanday ta'sirlanishi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ranglarning lingvistik va kognitiv tushunilishini yaxshilashga yordam beradi va ranglarning madaniy tafakkurdagi o‘rnini tushunishga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: Oq leksema, ko‘k leksema, assotsiativ maydon, individual assotsiatsiyalar, tashqi omillar, ranglarning psixologiyasi, madaniy tasavvurlar, ijtimoiy stereotiplar, kognitiv tahlil.

Kirish

Individual assotsiatsiyalar yakka shaxslarga tegishli o‘ziga xos assotsiatsiyalar bo‘lib, boshqa kishilarda kuzatilmaydi. Bunday assotsiatsiyalar ayrim shaxslarning tashqi olamdagi ranglarni o‘ziga xos tarzda idrok etishi, ranglar bo‘yicha o‘z tasavvurlari, rang bilan bog‘liq voqea-hodisalarga munosabati, ranglarga salbiy yoki ijobiy bahosi kabi omillar asosida hosil bo‘ladi.

Predmetlar rangining insonga ko‘rsatgan psixologik ta’siri natijasida ham turli individual assotsiatsiyalar hosil bo‘ladi. Kishilarda qonning rangi va lolaning rangi turli assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. Qonning rangi ko‘pchilikda nohushlik, yoqimsizlik hissini hosil qilishi sababli bu rangga nisbatan yuzaga kelgan assotsiatsiyalar individual

xarakterga ega bo‘ladi. Lolaning rangi esa ko‘pchilikda ijobiy hissiyot uyg‘otishi sababli assotsiatsiyalar ham bunday hissiy tuyg‘u bilan bog‘liq holda individual xususiyatga ega bo‘lishi tabiiy.

Ranglar bo‘yicha til egalari ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribalarda yakka assotsiatsiyalar turli tashqi omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘lganligi aniqlandi. Buni *oq* va *ko‘k* leksemalari assotsiativ maydoni misolida tekshiramiz:

Oq leksemasi assotsiativ maydoni:

OQ: qor 80; ko‘ylak 41; kabutar 36; varaq 32; paxta 23; bulut 22; un 19; parda 18; gul 17; kiyim 17; sut 15; kofta 14; tufli 13; mashina 12; yubka 11; qora 10; osmon 9; ko‘ngil 8; poklik 8; qush 7; devor 6; rang 6; atirgul 5; kafan 4; oqqush 4; ro‘mol 4; ayiq 3; doska 3; mato 3; qog‘oz 3; quyon 3; tinchlik 3; kitob 2; sumka 2; yorug‘lik 2; o‘t 2; shakar 2; shapka 2; chiroq 2; aroq 1; baxt 1; beg‘uborlik 1; dadajonim 1; daftar 1; doka 1; ezgulik 1; havo 1; ishonch 1; jannat 1; kapalak 1; kun 1; lola 1; marmar 1; mushuk 1; niqob 1; nur 1; ona 1; oy 1; poklik 1; pul 1; qalb 1; soflik 1; ustoz 1; vijdon 1; chaqaloq 1; chexol 1.

(Jami assotsiatsiyalar 500 ta; turli assotsiatsiyalar 473; yakka assotsiatsiyalar 27; javob berilmagan holat – 0)

Ushbu assotsiativ maydonda quyidagi javob reaksiyalari individual xarakterga ega:

aroq 1; baxt 1; beg‘uborlik 1; dadajonim 1; daftar 1; doka 1; ezgulik 1; havo 1; ishonch 1; jannat 1; kapalak 1; kun 1; lola 1; marmar 1; mushuk 1; niqob 1; nur 1; ona 1; oy 1; poklik 1; pul 1; qalb 1; soflik 1; ustoz 1; vijdon 1; chaqaloq1.

Oq leksemasi assotsiativ maydonida o‘rin olgan yakka javob reaksiyalari quyidagi tashqi omillar asosida hosil bo‘lgan:

1. Til egalarining predmetlarning oq rangdagi bo‘yog‘i bo‘yicha mavjud zaxiraviy bilimlari asosida hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar quyidagi javob reaksiyalarida voqelangan: *daftar, doka, kapalak, lola, marmar, mushuk, niqob, oy.*

2. Til egalarida predmetning xalq tilida mavjud bo‘lgan nomi asosida hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiya *aroq* javob reaksiyasida kuzatildi. Xalq tilida aroqqa nisbatan *oqi, oqidan* so‘z shakllari ishlatilishi ko‘p uchraydi. Mana shu bilim *oq* leksemasiga nisbatan *aroq* assotsiatsiyasining hosil bo‘lishiga turtki bergan.

3. Til egalarining atrofidagi kishilarni ular kiygan oq rangli kiyimda tasavvur qilishi orqali hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bu turdagi assotsiatsiyalarga quyidagi javob reaksiyalari misol bo‘la oladi: *dadajonim, ona, ustoz, chaqaloq, jannat.*

Surishtiruvlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki, ushbu javob reaksiyalarini bergan sinaluvchilarda dadasining doim oq yaktakda yurishi, onasining oq ro‘moli, ustozining oq koftasi, chaqaloqning oq yo‘rgagi *oq* leksemasiga nisbatan *dadajonim, ona, ustoz, chaqaloq* assotsiatsiyalarining hosil bo‘lishiga turtki bergan.

Oq leksemasi assotsiativ maydonidagi *jannat* javob reaksiyasi xarakterlidir. Ma‘lumki, *oq* rangi islom dinida diniy kiyimlar, masalan, Haj kiyimi rangi, kafan rangini bildirishi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, Jannatda havzi Kavsar suvining oq rangdaligi va muzdek ekanligi ham oq rangining diniy tasavvurlar bilan bog‘lanishini ko‘rsatadi. Umuman, boshqa dinlarda ham oq rangiga alohida e‘tibor qaratiladi. Manbalarda qayd etilishicha, “Oq rang deyarli barcha dunyo dinlari uchun muhim rangdir. Rim-katolik cherkovi boshlig‘i papa 1566-yildan beri poklik va qurbonlik ramzi sifatida oq libos kiyib keladi. Islomda va Yaponiyaning Shinto dinida oq rangdagi kiyimlarni ziyoratchilar ham kiyishadi”¹. Mana shunday diniy tasavvurlar *oq* leksemasiga nisbatan *jannat* javob reaksiyasining berilishiga turtki bergan bo‘lishi mumkin.

4. Til egalarining oq rangi ramziy ma‘nolari haqidagi bilimlari asosida hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiya quyidagi javob reaksiyalarida ko‘zga tashlanadi: *baxt, beg‘uborlik, ezgulik, ishonch, poklik, soflik.*

Ko‘k leksemasi assotsiativ maydonidan o‘rin olgan yakka javob reaksiyalarida quyidagi tashqi omillar roli aniqlandi:

KO‘K: osmon 194; ko‘ylak 45; ruchka 37; ko‘kat 23; bulut 20; dengiz 16; ko‘z 14; choy 12; daftar 8; delfin 8; kit 8; mashina 8; suv 6; devor 5; jiguli 5; parta 5; qalam 5; barg 4; gallaktika 4; kapalak 4; kitob 4; sumka 4; shim 4; gul 3; kostyum 3; yubka 3; shapka 3; bayroq 2; daryo 2; kofta 2; musaffolik 2; olam 2; samolyot 2; o‘t 2; xona 2; bahorning kelishi 1; bolta 1; futbolka 1; ichki xotirjamlik 1; jemfer 1; kepka 1; kiyim 1; kundalik 1; kurtka 1; kollej 1; konteyner 1; marker 1; maska 1; musaffo 1; olma 1; palto 1; penal 1; pepsi 1; qush 1; rang 1; siyoh 1; sokinlik 1; soflik 1; tufli 1; ummon 1; o‘chirg‘ich 1; chiziq 1.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Oq_rang

(Jami assotsiatsiyalar 500; turli assotsiatsiyalar 471; yakka assotsiatsiyalar 27; javob berilmagan holat 2 ta)

Ushbu assotsiativ maydondan o‘rin olgan quyidagi javob reaksiyalari yakka xarakterdagi individual assotsiatsiyalardir:

bahorning kelishi 1; bolta 1; futbolka 1; ichki xotirjamlik 1; jemfer 1; kepka 1; kiyim 1; kundalik 1; kurtka 1; kollej 1; konteyner 1; marker 1; maska 1; musaffo 1; olma 1; palto 1; penal 1; pepsi 1; qush 1; rang 1; siyoh 1; sokinlik 1; soflik 1; tufli 1; ummon 1; o‘chirg‘ich 1; chiziq 1.

1. Til egalarining ranglar haqidagi har xil bilim va tasavvurlari orqali hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar quyidagi birliklarda kuzatildi: *bahorning kelishi, musaffo, pepsi*.

Bu o‘rinda sinaluvchi tomonidan *ko‘k* leksemasiga *bahorning kelishi* javob reaksiyasining berilishiga bahor oyida hammayoqning yam-yashil tusga kirishi haqidagi bilimi turtki bergan. *Musaffo* javob reaksiyasi sinaluvchida bog‘li assotsiatsiya natihasida yuzaga kelgan. Ya‘ni *ko‘k* bu - osmon, osmon esa *muasaffo*. Pepsi kompaniyasining logotipida *ko‘k* chiziq mavjud. Sinaluvchining bu haqidagi bilimi *ko‘k* leksemasiga *pepsi* javob reaksiyasining yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

2. Til egasida predmetlarning ko‘k rangli bo‘yog‘i bo‘yicha mavjud zaxiraviy bilimi asosida hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar quyidagi birliklarda kuzatildi: *futbolka, jemfer, kepka, kiyim, kundalik, kurtka, kollej, konteyner, marker, maska, olma, palto, penal, qush, siyoh, tufli, ummon, o‘chirg‘ich, chiziq*.

Berilgan javob reaksiyalarining barchasi predmetlarning rang bo‘yog‘ini anglatadi.

3. Til egasida ko‘k rangi uyg‘otgan hissiyotlar bilan bog‘liq holda hosil bo‘lgan individual assotsiatsiyalar. Bu tipdagi assotsiatsiyalar quyidagi javob reaksiyalarida kuzatildi: *ichki xotirjamlik, sokinlik, soflik*.

Anglashiladiki, ko‘k rangi ayrim insonlarda xotirjamlik, sokinlik hissini uyg‘otadi. Bu holat sinaluvchilarning ko‘k rangiga nisbatan assotsiatsiyasi ko‘rinishida yuzaga chiqqan.

Soflik yakka sinaluvchida ko‘k (bu o‘rinda moviy nazarda tutilgan) rangining ramziy ma‘nosi sifatida idrok etilgan va u bu sinaluvchining individual assotsiatsiyasi sifatida yuzaga chiqqan. Umuman, osmonga nisbatan *musaffo, tiniq, sof* so‘zlarining ishlatilishida ham ramziylik mavjud.

Foydalangan adabiyotlar

1. Luriya, A. R. (1973). *Psixologiya va Til: Tilning Kognitiv Asoslari*. O'qituvchi.
2. Vygotskiy, L. S. (1986). *O'y va Til*. MIT Press.
3. Paivio, A. (2007). *Aql va Uning Taraqqiyoti: Ikki Kodlash Nazariyasi*. Psychology Press.
4. Davlatov, A. S. (2010). *Ranglar va Ularning Psixolingvistik Tahlili*. O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.
5. Grach, I. L. (2015). *Leksik-semantik Asoslar: Rang Leksemalari va Ularning Tasavvurlari*. Tbilisi Universiteti Nashriyoti.
6. Yulianova, M. V. (2010). *Rang va Madaniyat: Psixolingvistik Yondashuvlar*. Moskva Universiteti Nashriyoti.
7. Fiske, S. T., & Taylor, S. E. (2013). *Social Cognition: From Brains to Culture*. McGraw-Hill.
8. Aitchison, J. (2012). *So'zlar Ongda: Mental Leksema Kirish (4-nashr)*. Wiley-Blackwell.
9. Durov, M. E. (2018). *Assotsiativ Maydon va Ranglar: Psixolingvistik Yondashuv*. Rossiya Psixologiya Jurnal, 45(6), 111-120.
10. Kosslyn, S. M., & Miller, E. A. (2013). *Psixologiya: Miya, Shaxs, Dunyo (7-nashr)*. Pearson Education.

Research Science and
Innovation House

**O‘QUVCHILARNI TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI
SHAKLLANTIRISH ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH -
PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim
metodikasi” stajyor o‘qituvchisi, 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi ixtisosligi bo‘yicha birinchi bosqich doktoranti
Ro‘zimatov Jamshid Alisher o‘g‘li**

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida ularning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda 1-4-sinf o‘quvchilarining bilim darajasi, tadqiqotchilik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishning samarali usullari o‘rganilgan. Natijalar jadval shaklida taqdim etilgan bo‘lib, metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Tabiiy-ilmiy savodxonlik, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, metodika, faol usullar, eksperimental tadqiqot, pedagogik texnologiyalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishda ularning maktab ta’limiga tayyorligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayoni samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish, komil inson shaxsi rivojlanishini ta’minlash vazifasini amalga oshirish bolaning maktab ta’limiga tayyorligini qanchalik to‘g‘ri e’tiborga olinishiga bog‘liq.

Boshlang‘ich sinf darslarida tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish asosida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasining hozirgi kun talabi doirasida tashkil etish hamda ta’limning samaradorligi va sifatini yaxshilash.

Mustaqil mamlakatimizning bugungi kundagi taraqqiyoti haqida fikr va mulohaza yuritar ekanmiz, undagi o‘zgarishlar zamirida ta’lim va tarbiyaning o‘rni qanchalik muhim va katta ro‘l o‘ynashini ko‘rishimiz mumkin. Ayniqsa, hozirgi kunda ta’limning yuqori darajada rivojlanishi hamda yangi-yangi bilimlarning tadbiq etilishida tabiiy-ilmiy savodxonligini shakllantirish o‘z o‘rniga ega. Prezidentimiz ta’limni

rivojlantirish hamda yuksak cho‘qqilarga olib chiqish maqsadida chiqargan qaror va farmonlari buning yaqqol isbotidir. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoniga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga ilovasidagi Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturining umumiy o‘rta ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, kadrlar salohiyatini ko‘tarish va umumta’lim muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash to‘g‘risidagi bandining Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish qismida:

- aniq va tabiiy fanlarni amaliyot bilan bog‘lash;
- o‘qituvchilar uchun zamonaviy metodik qo‘llanmalar yaratish;
- o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, xususiy xulosalardan umumiy xulosalar chiqarish va umumiy xulosalarni xususiy hollarga tatbiq qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mediaresurslar yaratish;
- tabiiy fanlarni o‘qitishdagi xalqaro tajribani o‘rganish asosida ta’lim jarayonini spiralsimon yo‘nalishda olib borish;
- magistrlik va doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan olimlarni umumta’lim maktablarida dars berishga jalb qilish;
- pedagogika yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan talabalarning amaliyot soatlarini oshirish, amaliyotni asosan chekka hududlarda joylashgan ta’lim muassasalarida o‘tishini ta’minlash.

qonun va farmonlari bilan yangi O‘zbekistonda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish va rivojlantirishni belgilab berdilar.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda zamonaviy bilimlarga ega, erkin fikrlaydigan, aniq va tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari, robototexnika hamda boshqa yo‘nalishlarda jahondagi tengdoshlari bilan raqobatlasha oladigan shaxslarni tarbiyalash, o‘quvchilarning iste’dodi hamda qobiliyatini rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo‘lgan intilishlarini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-apreldagi PF-55-son Farmoni ham buning yaqqol isbotidir.

A.Anastazining fikricha, ta’limga yetuklik “maktab dasturidagi bilim, ko’nikmalarni o’zlashtirish uchun zarur bo’lgan qobiliyat va motivatsiyaning mavjudligidir”. I.Shvantsara esa “maktab ta’limida ishtirok etishga qobiliyatlik” deb baholagan.

Zamonaviy ta’lim tizimi o’quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlashni, balki ularning mustaqil fikrlash, tadqiqot qilish va yangi bilimlarni o’zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qiladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish va tadqiqotchilik ko’nikmalarini rivojlantirish bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. 1-4-sinf o’quvchilarida ushbu qobiliyatlarni rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari va amaliy tajribalari yoritiladi.

Insoniyatning tarixiy taraqqiyotining ma’lum rivojlanish pog’onasida garchi tabiatshunoslik ilmining ma’lum elementlari qadimiy yegipet, Xitoy, Movarounnahr, Hindiston singari mamlakatlarda vujudga kelgan bo’lsada, u o’z xususiyatiga ko’ra keskin qarama-qarshiliklarga uchragan va uning taraqqiy topishi uchun bir butun mifologik sistemalarni parchalanishiga sabab bo’lgan.

Fanning ikki ming yillik tarixi uning qator qonuniyatlari va tendensiyalari borligidan dalolat beradi.

Tabiiy fanlarning taraqqiyot tarixi haqida fikr yuritadigan bo’lsak, uning asosini qadimiy Gresiyada amaliyot maktabi asoschisi, o’z davri va mamlakatining siyosiy arbobi *Fales* yaratgan. Fales dunyoni bilish maqsadida uzoq vaqt sayohat qilgan. Yegipetda geometriya va kosmologiya sohasida olgan bilimlari asosida quyosh tutilishini oldindan (karomat) aytgan. Aristotel fikriga ko’ra, Fales tabiatda sodir bo’ladigan voqeelik, tabiiy muhitni o’zgarishi va koinotda sodir bo’ladigan hodisalar, xususan quyosh tutilishini oldindan bashorat qilgan, u yetti donishmand (ulamao)lardan birinchisi, dono va oqil siyosatchi bo’lgan. Aristotel uning og’zaki holda qoldirgan to’rt tezisini keltiradi:

- 1.Hamma narsa suvdan paydo bo’lgan.
2. Yer suvda daraxt (yog’och) singari suzib yuradi.
3. Koinot iloh (xudo) arga to’la. Jon-koinotda joylashgan.

Falesning arxaik ontologiyasida borliq (mavjudiyat) va hayot o’xshash, bir-biridan farqlanmaydi. Koinotda mavjud barcha narsa hayot, yashaydi. Hayot nafas olish va oziqlanishdan iborat. Birinchi funksiyani iloh (xudo), ikkinchisini suv bajaradi.

Melodiydan oldingi 490-430 yillarda qadimiy yunonistonda yashab ijod etgan *Empedokl* o’z davrining buyuk tabiatshunos olimlaridan hisoblangan. Empedokl

nafaqat o‘zining falsafiy qarashlari bilan, balki mohir tabib, bilimdon fizik va fiziolog sifatida shuhrat qozongan. U quyosh tutilishini tushuntirib berishga muvaffaq bo‘lganlardan. Empedokl quyosh tutilishini oy, yer bilan quyosh o‘rtasidan o‘tgaligi tufayli sodir bo‘lishini tushuntirgan. Shunga ko‘ra, quyosh nuri (yorug‘lik) shu qadar tez o‘tadiki, kishi uning harakatini payqamaydi va tarqalish uzunligini aniqlay olmaydi.

Tabiiy fanlar o‘qitish metodikasi bo‘yicha ishlar (A. To‘laganov, M. Qodirov) boshlang‘ich sinflarda eksperimental va kuzatuv usullarining ahamiyatini ta’kidlaydi. Tabiiy fanlar darslarida tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik usullar o‘quvchilarning bilim darajasini sezilarli darajada oshirdi. Eksperimentlar, loyihalar va kuzatuvlar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlandi. Shuningdek, interfaol usullar o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirdi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. S.M.Mustafayev, O‘.A.Axmedov. Tabiiy bilimlar zamonaviy konsepsiyasi. — T.: «Aloqachi», 2010, 224 bet.
2. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Kimyo fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma, Toshkent: 2022.
3. Rozimatov, J. (2023). ENHANCING THE METHODOLOGY FOR UTILIZING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES AMONG FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS (USING NATURAL SCIENCE AS AN EXAMPLE). *Евразийский журнал академических исследований*, 3(12 Part 2), 11-13.
4. Ruzimatov, J. (2024). THE ROLE OF USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *Евразийский журнал академических исследований*, 4(3 Part 2), 109-113.
5. Tabiiy fanlar: 6-sinf uchun darslik / K. T. Suyarov [va boshq.]. — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 192 b.
6. Tabiiy fanlar: mashq daftari 1-sinf uchun / K. Suyarov [va boshq.]. — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. — 72 b.
7. Ro‘zimatov, J. (2024). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(8), 72-78.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 02. February 2025

8. Jamshid, R. Z. (2024). BO ‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O’QITUVCHILARINING RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 4(4), 141-146.

9. Ruzimatov, J. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *NRJ*, 1(3), 755-760.



**Research Science and
Innovation House**

MUNDARIJA

1.	EKSPORT SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA AHAMIYATI Ziyodulla Amirovich Xolmuminov,	6-8
2.	ОСОБЕННОСТИ ИЗУЧЕНИЯ ОБРАЗА И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ДОЛГОЖИТЕЛЕЙ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С СИНДРОМОМ СУХОГО ГЛАЗА Хакимова З.К., ¹ Камилов Х.М., ² И. Ж. Жахонгиров., ³ Шерматов А.А., ⁴ И.И.Исомов ⁵	9-11
3.	Ommaviy axborot vositalarining Saudiya Arabistonining xalqaro maydondagi imidjini shakllantirishdagi roli Shahlo Egambergan qizi Rajabova	12-19
4.	KO‘KALDOSH MADRASASI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATI Niyazkulov Abdug‘ofur Rabimkulovich	20-28
5.	Odam organizmida tuzlar almashinuvining buzilishi Baxromov Asliddin Bahodir o‘g‘li	29-43
6.	Проблема гельминтозов у детей Б.М. Маматкулов, А.М. Умарова.	44-46
7.	JAMOATCHILIK NAZORATINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI Najimov Farxodjon Biloldinovich	47-49
8.	LINGUACULTURAL CHALLENGES IN TRANSLATING UZBEK JOURNALS INTO ENGLISH Zikirova Nozima Muzaffar qizi	50-55
9.	Интересы Золотой Орды в области торговли Амангельдиев Одилжон Йигиталиевич	56-58
10.	THE INFLUENCE OF INTEGRATION PROCESSES OF TURKIC-SPEAKING STATES ON THE DEVELOPMENT OF MASS MEDIA	59-66

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 02. February 2025

	Nilufar Ibragimkhodjaeva	
11.	LEGAL AND PRACTICAL ASPECTS OF SELECTING TEACHING STAFF IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS Xasanova Sevara Baymuradova	67-75
12.	Tilshunoslikda lingvistik tadqiqotlar va nazariyalar sharhi BIZNES NUTQI MASALASI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI Eshchonov Sanjar,	76-80
13.	METAPHOR IN POLITICAL DISCOURSE: A COMPARATIVE ANALYSIS OF DONALD TRUMP AND SHAVKAT MIRZIYOYEV’S RHETORICAL STRATEGIES Chulliev Nuriddin Abdirashid ugli	81-85
14.	O‘RTA ASRLAR MANBALARIDA BUXORO VOHASINING SUG‘ORISH TIZIMI TARXININ YORITILISHIGA OID BA‘ZI MULOHAZALAR Usarov U.A.	86-89
15.	MATEMATIKADA KOMPLEKS SON TUSHUNCHASI Axatqulov Anvar Almasovich. Axrrova Sevinch Bahodir qizi.	90-93
16.	O‘pka tuberkulyozi bo‘lgan bemor bolalarda klinik va epidemiologik tekshiruv usullari Xasanova Mohira Farxadovna	94-95
17.	O‘pka tuberkulyozi va allergik bronxiti bo‘lgan bemorlarda immunnologik aspektlarni o‘rganish va qiyosiy taqqoslash usullari Xasanova Mohira Farxadovna	96-97
18.	YO‘SINLARNING TABIATDAGI O‘RNI VA TARQALISH XUDUTLARI Pardaboyev Soxib Begali o‘g‘li Mullajonova Nilufar Farxod qizi	98-100

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 02. February 2025

19.	KOMPLEKS SONNING TRIGONOMETRIK SHAKLI Raxmatov Alisher Shirinboyevich. Komilov Shaxzod Zokirjon o'g'li	101-108
20.	QO'RIQLASH TIZIMINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH Gadayev Doniyor Rajabovich. Bo'riboev Baxriddin Tursunboy o'g'li	109-114
21.	“BAHRA-L-FAVOID” – AN'ANAVIY HADIS TO'PLAMI SIFATIDA Sarvar U.Muxammadiyev	115-124
22.	“AT-TAARRUF” VA “BAHRA-L-FAVOID” ASARLARINING QIYOSIY TARKIBIY TAHLILI Sarvar U.Muxammadiyev	125-133
23.	HISOR DAVLAT QO'RIQXONASINING TABIIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI Pardaboyev Soxib Begali o'g'li Tursunqulov G'iyos Sheramat o'g'li	134-137
24.	Buyrak tosh kasalligi : sabablari, belgilari, tashxisi, va zamonaviy davolash usullari Kenjayev Yodgor Mamatqulovich	138-141
25.	Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirishning qadriyatli, tashkiliy va pedagogik shart- sharoitlari Ravshanova Gulnoza Asqar qizi Baratova Mashxo'ra Qahramon qizi	142-147
26.	RADIATSIYA NURLARIDAN ZAHARLANISH VA UNI DAVOLASH USULLARI Xolboboyeva Madina Maxmarajabqizi	148-151
27.	NEYRODERMATIT KASALLIGI: ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI VA KLINIK BELGILARI Boyqobilov Soatmurod Shuxratovich Norboeva Marjona Boyquvvatovna	152-154
28.	Conservative Methods for Caries Treatment	155-156

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 02. Issue 02. February 2025

	Ismoilova Umiya G'ayrat qizi	
29.	PUSHTI LEKSEMASI ASSOTSIATIV MAYDONIDAGI INDIVIDUAL ASSOTSIATSIYALAR TAHLILI Ra'noxon Ubaydullayeva Ahmadaliyevna	157-159
30.	OQ VA KO'K LEKSEMALARI ASSOTSIATIV MAYDONIDA TASHQI OMILLAR ASOSIDA HOSIL BO'LGAN INDIVIDUAL ASSOTSATSIYALAR TAHLILI Ra'noxon Ubaydullayeva Ahmadaliyevna	160-164
31.	O'QUVCHILARNI TABIIY-ILMIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH - PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA Ro'zimatov Jamshid Alisher o'g'li	165-169
32.	MUNDARIJA	170-173

**Research Science and
Innovation House**